Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda
На посту

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

1930-2025 95 yoshda

2025-yil 19-iyun
payshanba

№ 25 (4719)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

Inson qadri uchun

KATTA INSPEKTORLARNING KICHIK VATANI

Kapitan Jamshid Turg‘unov O‘zbekiston tumani IIBda profilaktika katta inspektori, uning turmush o‘rtog‘i, mayor Zeboxon Yunusova esa Furqat tumani IIBda xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektor bo‘lib xizmat qiladi.

Ikki nafar farzandni munosib tarbiyalayotgan sharafli kasb egalari hayotida quvonchli voqea yuz berdi. Yaqinda ularning oilasi Furqat tumani Navbahor ko’chasidagi 5 qavatli turar joy binosidagi 2 xonali shinam xonadonga ko’chib kelishdi.

Uylarni foydalanishga topshirish jarayoni shodiyonaga aylanib ketdi. Unda viloyat hokimi Xayrullo Bozorov, viloyat IIB boshlig‘i, general-mayor Azizbek Ikramov, soha faxriylari, ota-onalar, jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi.

Tadbirda so‘z olganlar Prezidentimiz tomonidan ichki ishlar organlarini modernizatsiya qilish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish, ular uchun munosib xizmat va yashash sharoitini yaratish borasida belgilab berilgan vazifalarning amaldagi ijrosi haqida so‘z yuritib, o‘z uy-joyiga ega bo‘layotgan xodimlar kelgusida yanada samarali xizmat qilishi, safdoshlariga har tomonlama shaxsiy namuna va o‘rnak bo‘lishi zarurligini qayd etishdi.

Shundan so‘ng yangi xonadonlar kaliti o‘z egalariga tantanali ravishda topshirildi. Tadbirda so‘z olgan faxriylar va ota-onalar o‘zining kichik vataniga ega bo‘lgan barcha xodimlarni, ularning farzandlarini samimiy muborakbod etib, yangi uylarda baxtli va farovon hayot kechirishlariga tilak bildirishdi.

– O‘zimizning kichik vatanimiz bo‘lishini ko‘pdan beri orzu qilib yurgandik, bugun ushbu baxtga erishdik, – deydi mayor Zeboxon Yunusova quvonchini yashirolmay. – Xonadonimizning ishxonamga yaqinligini aytmaysizmi? Bu yerda baxtli va farovon hayot kechirib, xalqimizga sadoqat bilan munosib xizmat qilishda davom etamiz. Shu o‘rinda soha xodimlariga ana shunday imtiyozlar berib, g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotgani uchun yurtboshimizga va IIV rahbariyatiga minnatdorlik bildiraman.

Tantanali marosimdan so‘ng viloyat hokimi, ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i va bir guruh faxriylar kapitan Jamshid Turg‘unov va mayor Zeboxon Yunusovalarning yangi xonadonida mehmon bo‘lishdi. Bir piyola choy ustida qurilgan samimiy suhbat chog‘ida ichki ishlar organlari xalqchil va professional tuzilmaga aylanib borayotgani qayd etildi. Kasbga sadoqat, Vatanga muhabbat bilan xizmat qilayotgan yangi xonadon sohiblariga baxtli va farovon hayot kechirishlarini so‘rab ezgu duolar qilindi.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.

YOSHLAR OYLIGI

Navoiy viloyati

ISHONCH VA IMKONIYAT

Ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida, yaqinda Navoiy viloyati IIB tizimida xizmat qilayotgan xodimlardan 95 nafarining farzandlariga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishlari uchun imtiyozli tavsiyanomalar topshirildi.

– Tizimdagi ko'p yillik xizmatim yuqori baholanib, bugun o'g'lim oliy o'quv yurtiga o'qishga kirishi uchun tavsiyanomaga ega bo'ldi. Bu esa uning tanlagan sohasi bo'yicha malakali mutaxassis bo'lishi yo'lida berilgan imkoniyatdir, – deydi podpolkovnik Mirmuhsin Nurmuhammedov.

Gulnoza Ibodullayeva ham imtiyozli tavsiyanomani qo'lga kiritgan umidli yoshlardan. Necha yildirki, u huquqshunos bo'lishni orzu qiladi. Hozirda sohaga oid fanlarni chuqur o'rganib, davlat test sinovlariga puxta tayyorlanmoqda.

– Berilgan imtiyozdan samarali foydalanib, kelajakda yetuk kadr bo'lib, yurtimizda qonun ustuvorligiga munosib hissa qo'shaman, o'zimga bildirilgan ishonchni oqlayman, – deydi kapitan Sanjar Amonovning qizi Gulnozaxon. – Otam ayni paytda Navoiy shahar IIB JXX HPB profilaktika katta inspektori lavozimida faoliyat olib boradilar. Qariyb 20 yildan buyon yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash yo'lida xizmat qiladilar. Ularning timsolida fidoyilik, jasorat namunasini ko'rib ulg'aydim. Men otam bilan faxrlanaman.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati

KIM EPCHIL-U, KIM CHAQQON?

Surxondaryo viloyati ichki ishlar organlari yosh xodimlari o'rtasida sportning stol tennisi turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi. Unda viloyat IIB sohaviy xizmatlari va barcha shahar-tuman IIBlari yosh xodimlari ishtirok etishdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, 3-o'rinni Bandixon tumani IIB Ta'minlash va xizmat ko'rsatish bo'linmalari komendanti, safdor Hasan Choriyev, 2-o'rinni Boysun tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Jalol Xo'shboqov qo'lga kiritgan bo'lsa, Jarqo'rg'on tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori, leytenant Alibek Berdimo'minov mutlaq g'olib deb topildi.

Musobaqa yakunida g'olib va sovrindorlarga boshqarma boshlig'ining diplom hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari tantanali ravishda topshirildi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati

BILIMDONLAR – G'OLIB

Urganch shahridagi «Yoshlar markazi»da huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yosh xodimlari va harbiy xizmatchilari ishtirokida «Ajdodlar izidan» intellektual o'yining hududiy bosqichi bo'lib o'tdi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi hamda Yoshlar ishlari agentligining viloyat boshqarmasi hamkorligida o'tkazilgan mazkur tadbirda 6 ta jamoa ishtirok etib, o'z salohiyatlarini namoyish qilishdi. Bellashuvning yakuniy natijalariga ko'ra viloyat IIB jamoasi hududiy bosqich g'olibi deb topildi. Shuningdek, viloyat bojxona boshqarmasi hamda IIV huzuridagi JIED 6-Mintaqaviy hudud 11-tergov hibsxonasi jamoalari esa ikkinchi va uchinchi o'rinlarni egallashdi.

G'olib va sovrindorlar diplom hamda kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlanishdi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Qorovul qo'shinlari

JASORAT UNUTILMAS

Yoshlar oyligi doirasida IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli poytaxtimizda joylashgan 7534-harbiy qism bir guruh mas'ullari mardlik va jasorat ko'rsatgan marhum harbiy xizmatchi Yusufjon Alishev xonadonida bo'lishdi. Tashrif davomida, harbiy xizmatchilar marhumning oila a'zolari bilan suhbatlashib, ularning holidan xabar oldilar. Albatta, bu kabi tadbirlar yoshlarda vatanparvarlik, burchga sadoqat va ota-onaga hurmat tuyg'ularini yanada kuchaytirishga xizmat qilishini ta'kidlash o'rinlidir.

O'z muxbirimiz.

ANONS

NAVOIYDA YOSHLAR FORUMI

Yoshlar oyligi doirasida o'tkazilayotgan ichki ishlar organlari yosh xodimlari va harbiy xizmatchilarining V Respublika yoshlar forumiga Navoiy viloyati mezbonlik qildi. Uch kun davom etgan, qizg'in va ko'tarinki ruhda o'tgan ushbu tadbirda 170 nafar yigit-qiz qatnashdi.

Forumning «Yilning eng yaxshi yoshlar jamoasi» musobaqasida ishtirokchilar jangovar tayyorgarlik, nostandart va ekstremal vaziyatlarda harakatlanish, intellektual-psixologik, kasbiy hamda ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik shartlari bo'yicha sinovdan o'tishdi.

Tadbir tafsilotlari bilan gazetamizning keyingi sonida tanishasiz.

MUXBIRLARIMIZ XABAR QILADI

Ichki ishlar vazirligi tasarrufidagi akademik litseylar bitiruvchilari hayotning yangi, yanada mas'uliyatli bosqichiga qadam qo'yishdi. Qalbi pok orzu-umidlar bilan to'lgan navqiron, azm-u shijoatli bu yoshlarimizning ertasi xalqimizning, Vatanimizning kelajagi bilan chambarchas bog'liqdir.

Buxoro viloyati

Akademik litseyning 173 nafar o'quvchisi ta'lim bosqichini tamomladi. Shundan, 12 nafar o'quvchi imtiyozli shahodatnoma oldi.

Namangan viloyati

Bu yilgi o'quv yilida ta'lim muassasasini tamomlayotgan 184 nafar bitiruvchining 10 nafariga imtiyozli diplom va 2 nafariga kumush medallar topshirildi.

Qashqadaryo viloyati

Joriy o'quv yilida akademik litseyni 175 nafar o'quvchi tamomlamoqda. Shulardan 20 nafari imtiyozli diplom sohiblaridir.

Toshkent shahri

IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyi va soha faxriylari 183 nafar bitiruvchiga diplomlarni tantanli ravishda topshirishdi.

Farg'ona viloyati

Akademik litseyni joriy o'quv yilida 183 nafar o'quvchi bitirayotgan bo'lsa, ulardan 14 nafari imtiyozli diplom va 5 nafari oltin medal bilan yakunladi.

NUQTAYI NAZAR

«VATANDIN YAXSHI YOR O‘LMAS»

Har bir chaqaloq dunyoga kelarkan, unga uchta narsani tanlash huquqi berilmas ekan. Bu tuqqan onasini, millatini va Vatanini tanlash huquqlaridir. Shu bois Vatan so‘ziga Ona so‘zini qo‘shib, ONA VATAN tarzida talaffuz qilamiz. Axir inson uchun onadan azizroq kishi bormi? Demak, bu uchta tushuncha barchamiz uchun muqaddas. Dunyoda sodir etiladigan deyarli barcha urush va to‘qnashuvlar ham aslida ona Vatan va millat farovonligi, uning himoyasi yo‘lida bo‘ladi.

Dunyoda bir-biridan go‘zal, betakror tabiati bilan o‘ziga rom qila oladigan mamlakatlar bisyor. Lekin ular orasida bir jannatmonand o‘lka borki, uning ta’rifini so‘z bilan aytib, ko‘zga ko‘rsatib berish qiyin. Bu – O‘zbekistondir!

Yurtimizga tashrif buyuradigan millionlab sayyohlar, ishbilarmon doiralar vakillari, yuqori darajadagi rasmiy delegatsiya tarkibidagi davlat arboblari va boshqalar mamlakatimizni iliq xotiralar bilan tilga olishadi. Haqiqatan ham, o‘zining betakror to‘rt fasli, bepoyon go‘zal manzaralari, viqorli tog‘ cho‘qqilari, shirindan-shakar mevalari, eng asosiysi, mehmondo‘st va mehnatkash xalqi bilan shuhrat qozongan diyorimiz manaman degan ko‘plab taraqqiy etgan mamlakatlar uchun havas qiladigan davlat sifatida namuna bo‘la oladi.

Qanchadan-qancha hamyurtlarimiz o‘zlari bilgan-bilmagan holda, ma’lum sabablarga ko‘ra, tug‘ilib o‘sgan yurtiga nisbatan fitna va bo‘hton toshlarini otib, chet ellarda vatangado bo‘lib yurishibdi. Ularning nomlarini eslab tilga olishga arzimaydi. Ular allaqachon o‘zlari uchun umrbod jazo olishgan.

Xorijda bo‘lganimizda, vatandoshlarimiz bilan suhbatlashib qolganimizda, ularning ko‘zlarida Vatan sog‘inchini ko‘ramiz. Bu hissiyot insonlarning xohish-istagidan qat’i nazar, ularning vujudlari orqali seziladigan nozik hisdir. Vatan har bir kishining o‘z qalbidan, vijdonidan boshlanadi. Vatanni sevish inson ruhiyatidagi asl tabiatdir. Ushbu tabiat Vatanda yashashda huzur-halovat, undan yiroq ketganda sog‘inch, hujum qilinganda himoya va kamsitilganda g‘azab hislarini paydo qiladi. Vatanga nisbatan aytilgan bo‘hton, yolg‘on so‘zlarning noto‘g‘ri ekanligini o‘sha joyda inkor etish, to‘g‘ri fikr bildirish haqiqiy vatanparvarlik belgisidir.

Bobokalonimiz Bobur Mirzo vafotlari yaqin qolganda shunday vasiyat qiladi: «Men vafot etganimdan keyin mening jasadimni Vatanimga yaqin bo‘lgan biror toqqa ko‘minglar, chunki Ona yurtimning shamoli hech bo‘lmaganda qabrimning ustidan esib tursin va yana iloji boricha Andijondan bir siqim tuproq olib keling-da, qabrim uzra seping, toki Vatanim tuprog‘i ko‘zimga to‘tiyo bo‘lsin». Mana shu vasiyatga ko‘ra, Bobur Agra shahridan hozirgi Afg‘onistonning Qobul shahri yonidagi adirga olib kelib dafn etiladi.

Nega chaman istamas
yantoq,
Sahrosidan kelmaydi beri?
Axir qo‘msar yongan
shu ovloq,
Ne qilsa ham uning Vatani.

Bu she’rda Vatan tuyg‘usi oddiy yantoq misolida madh etilgan. Shu she’r asosida yaralgan, O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov tomonidan ijro etilgan «Bolam dema Vatanim meni» qo‘shig‘i esa millionlab tinglovchilarning qalbidan joy olgan. Mashhur san’atkorlarimiz tomonidan Vatan haqida mahorat bilan ijro etilgan qo‘shiqlarni tinglab to‘ymaysan kishi. Inson qalbining nozik torlarini tebrata oladigan so‘zlarni yozgan shoirlar, ohanglarni jozibador etib bitgan bastakorlar va mahorat bilan ijro etgan xonandalarga minglab rahmatlar aytsa arziydi.

Har bir insonning Vatani bitta bo‘ladi. Bu uning kindik qoni to‘kilgan va ota-bobolarining pokiza xoklari sharaflangan joydir. Shu muqaddas makonni tark etib, boshqa davlatlarda yashash – uning qo‘nim topgan joyi deyiladi, xolos. «Yoridan ayrilgan yetti yil yig‘lar, yurtidan ayrilgan o‘lguncha yig‘lar» yoki «O‘z yurtingning qadri o‘zga yurtda bilinar» degan maqollarimiz har birimiz uchun dasturilamal bo‘lmog‘i lozim.

O‘z ona yurtiga, Vataniga xizmat qilgan farzandlar shu millatda eslanib, doimo qalblarda ardoqlab kelinadi. Afrosiyob, Spitamen, To‘maris, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, istiqlol uchun kurashgan jadid bobolarimiz kabi ko‘plab ajdodlarimiz o‘z Vatani ozodligi uchun jonfido etishgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Hech shubhasiz, shunday ulug‘ zotlarning shonli hayoti biz — avlodlar uchun mardlik va Vatanga sadoqat namunasi bo‘lib xizmat qiladi.

Bugungi notinch va murakkab zamonda yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikni saqlash, xalq farovonligini ta’minlash juda katta mehnat va mas’uliyatni talab qiladi. Buning uchun har bir yurt farzandi o‘zining shu yurt taqdiriga daxldor ekanligini qalban his qilgan holda, jamiyatdagi vazifalarini to‘la ado qilmog‘i lozim.

Yurtimiz tinchligi va barqarorligini saqlashda, mamlakatimiz hududini himoya qilishda harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari xodimlari, chegarachilarining xizmatlari beqiyosdir. O‘z oromi, huzur-halovati, kerak bo‘lsa, jonidan kechib, Vatanimiz tinchligi va osoyishtaligini himoya qilayotgan xodimlarning mashaqqatli xizmatlari alohida e’tirofga sazovor. Zero, Vatanga xizmat qilmoq shu yurt farzandiman degan har bir o‘g‘il-qizning muqaddas burchidir.

G‘ayratulla SHUKUROV,
o‘z muxbirimiz.

Горжусь сыном!

БЫТЬ ДОСТОЙНЫМ ВЫСОКОЙ ЧЕСТИ

Для отца большая радость, когда дети находят свое призвание в жизни. Ведь сколько заботы, внимания, терпения вкладываешь, чтобы они выросли достойными гражданами. Мой сын, Иноятилла Бойжигитов – старший оперуполномоченный Сырдарьинского районного отдела внутренних дел.

На снимке: *подполковник Ойбек Абдуллаев проводит встречу с членами семей сотрудников.*

Недавно меня в числе трех десятков родителей пригласили в райотдел. В ходе беседы начальник ОВД подполковник Ойбек Абдуллаев выразил благодарность за хорошее воспитание сына. Подчеркнул, что от сотрудников требуются добросовестная служба, инициативность, четкое исполнение обязанностей. При этом вопросы социальной защиты сотрудников – в центре внимания каждого руководителя. Привел примеры эффективного решения вопросов предоставления субсидий, льготных кредитов, оказания иных мер поддержки.

В ходе встречи мы ознакомились с условиями, созданными в районном ОВД. Видно, что здесь активно внедряется все самое передовое. Особенно впечатлил ситуационный центр. К огромному монитору подключены камеры видеонаблюдения, установленные на территории района. По ним можно в режиме реального времени отслеживать ситуацию, оперативно принимать управленческие решения.

В рамках встречи было проведено собрание с участием родителей молодых сотрудников. Состоялся откровенный разговор, приведены и нелицеприятные факты.

Нам также продемонстрировали условия, созданные для духовного и физического развития сотрудников. Мое внимание привлекла библиотека ОВД, книжный фонд которой постоянно пополняется литературой, переданной самими сотрудниками.

Я вернулся домой, с гордостью думая о том, что мой сын служит в таком сплоченном коллективе и стремится достойно отстаивать правопорядок и закон.

Абдукарим ТУРДИКУЛОВ.
Сырдарьинская область.

Из следственной практики

«ДОБРЫЕ» НАМЕРЕНИЯ

Полдень. Улицы наполнены суетой спешащих людей. В этой атмосфере создается неповторимый ритм, где каждый звук – от гудков машин до обрывков разговоров – сливается в единую мелодию городской жизни…

Анвар, сидя за рулем своей автомашины, ехал, вглядываясь в вывески заведений, расположенных вдоль дороги. Он искал небольшое кафе, в котором продавали еду на вынос. Утром, торопясь, толком не успел позавтракать. Потом был наплыв заказов… Только теперь, когда появилась свободная минутка, он ощутил чувство голода, а ведь впереди еще несколько часов работы за рулем. Наконец на противоположной стороне дороги он разглядел яркий фудтрак. Анвар сбросил скорость. Осмотревшись, увидел небольшую площадку, на которой стояло несколько припаркованных машин. Анвар подъехал, заглушил двигатель, вышел из авто и запер ее на ключ. Перейдя дорогу, направился к фудтраку.

Поинтересовавшись у стоящих, кто крайний, Анвар занял место в очереди. Буквально через несколько минут очередь дошла и до него. Сделав заказ, он стал с интересом наблюдать за торговцем, который с ловкостью управлялся с кухонными принадлежностями, готовя ему хот-дог…

Получив пакет с едой, Анвар, с мыслями о перекусе, направился к автомобилю. Сначала он решил, что перепутал машину, но, подойдя ближе, понял, что в салоне его автомобиля на водительском кресле сидит незнакомый мужчина. Подскочив к машине и раскрыв дверь, Анвар нервно спросил: «Вы что тут делаете?» Незнакомец стал что-то невнятно бормотать про открытую дверь авто, про ключ, который он разыскивал, чтобы закрыть его, и про то, что хотел дождаться хозяина и передать машину в целости и сохранности, про свои добрые намерения… Эти слова ввели Анвара в замешательство. Он рукой стал нащупывать ключ, который лежал у него в кармане брюк, но свисающие провода из-под руля и раскиданные по салону вещи быстро привели его в чувство. «Не врите? Я еще раз спрашиваю, что вы делаете в моей машине?» – практически прокричал Анвар. Вокруг автомобиля стал собираться народ. Незнакомец, испугавшись, выскочил из машины и быстрым шагом направился в сторону метро. Но уйти далеко ему не удалось. С помощью окружающих Анвар задержал злоумышленника. Прибыли сотрудники патрульно-постовой службы.

При установлении личности незнакомца выяснилось, что он – опасный рецидивист, неоднократно судимый за аналогичные преступления.

По данному факту следственный отдел при УКД ОВД Мирабадского района города Ташкента возбудил уголовное дело по пункту «а» части 3 статьи 169 УК («Кража»), квалифицировав действия также по статье 25 («Приготовление к преступлению и покушение на преступление»). После окончания предварительного следствия оно с обвинительным заключением было направлено в суд. Решением Мирабадского районного суда по уголовным делам 33-летний Нуриддин А. признан виновным в совершении преступления, предусмотренного вышеуказанной статьей УК, ему назначено соответствующее наказание.

Уважаемые водители, хотим напомнить: соблюдайте меры предосторожности, не оставляйте автомобиль без присмотра.

Эльвира САЛИЕВА, сержант.

YO‘L QOIDANI YOQTIRADI

SKUTER BOSHQARUVINI BOLALARGA BERMANG!

So‘nggi yillarda aholi orasida tez harakatlanuvchi moped va skuterlar soni keskin ko‘paydi. Ayniqsa, yuk tashishga mo‘ljallangan skuterlar odamlarning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda, bunday ulovlar dehqonchilik, bog‘dorchilik va yuk tashish bilan shug‘ullanuvchi kishilarning haqiqiy ko‘makchisiga aylanib qoldi.

Ammo muammo shundaki, bunday transport vositalarini aksariyat hollarda ayollar yoki voyaga yetmaganlar boshqarmoqda. Afsuski, skuter boshqarayotgan ayollarning haydovchilik guvohnomasi ham yo‘q. Guvohnomasi bo‘lmagandan keyin, tabiiyki, haydovchilik tajribasi ham bo‘lmaydi.

Yanada achinarlisi, ko‘chalarda skuter yoki mopedlarni voyaga yetmaganlar «yashin tezligida» haydab ketayotganini ko‘rasiz. Ular ulovning tez harakatlanganiga qiziqadilar-u, tajribasizlik tufayli qoidalarga rioya qilishmaydi. Himoya vositalaridan foydalanishni-ku aytmasa ham bo‘laveradi. Natijada yo‘llarda ayanchli hodisalar tez-tez sodir bo‘lmoqda.

Masalan, 2025-yilning o‘tgan davrida Farg‘ona viloyatida mototsikl, skuter va mopedlar ishtirokida 41 ta yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘ldi. Eng achinarlisi shundaki, ushbu holatlarning 7 tasi o‘lim bilan tugagan bo‘lsa, 34 ta holatda fuqarolar tan jarohati olib, shifoxonaga yotqizildi.

– Aynan shunday mudhish hodisalarning oldini olish maqsadida viloyat IIB JXX Yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi xodimlari tomonidan nazorat-profilaktika tadbirlari, targ‘ibot-tushuntirish ishlari muntazam ravishda tashkil etilmoqda, – deydi viloyat IIB JXX YHXB boshlig‘i, podpolkovnik Akmal Ahmedov. – Skuter haydovchilariga yo‘l qoidalariga qat’iy amal qilish kerakligi, himoya vositalaridan, tungi paytlarda esa yoritish chiroqlari va nur qaytaruvchi elementlardan foydalanish zarurligi tushuntirilib, ogohlikka chorlovchi maxsus bukletlar tarqatilyapti. Bunday transport vositalarining ko‘paygani yaxshi, albatta. Ammo ularni boshqarayotganlar haydovchilik guvohnomasi va tajribasiga ham ega bo‘lishi shart.

Mutasaddining ta’kidlashicha, hozirda fuqarolar boshqarib yurgan skuterlarning aksariyati davlat ro‘yxatidan o‘tmagan yoki sodda qilib aytganda, hujjati yo‘q. Shu bois og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish va haydovchilarga nisbatan javobgarlik masalasini qat’iylashtirish maqsadida endilikda bunday transport vositalari davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi va uni boshqarayotgan haydovchilardan tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasi talab qilinadi.

Fuqarolarimizda «Xo‘sh, bu jarayon qachongacha davom etadi va qayerda amalga oshiriladi?» degan savol tug‘ilishi tabiiy hol.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yilning 12-apreldagi tegishli qarori bilan bu turdagi transport vositalarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishga qo‘yilgan muddat joriy yilning 1-oktabriga qadar uzaytirildi.

Mazkur qarorda moped va skuterlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartib-qoidalari va usullari aniq ko‘rsatilgan. Jumladan, moped yoki skuterlar ham boshqa barcha turdagi transport vositalari kabi, belgilangan talablarga muvofiq davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi. Bu jarayon Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati hududiy boshqarmalarining ro‘yxatdan o‘tkazish va imtihon olish bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

Ma’lumot uchun: mazkur turdagi transportlar ikki xil shaklda, ya’ni dvigatelining ish hajmi 25 sm³dan ortiq, lekin 50 sm³dan oshmaydigan, konstruktiv tezligi soatiga 25 kilometrdan ortiq, lekin 50 kilometrdan oshmaydigan holatda moped sifatida;

elektr dvigatelining quvvati 0,25 kilovattdan ortiq, lekin 4 kilovattdan oshmaydigan, konstruktiv tezligi soatiga 25 kilometrdan ortiq, lekin 50 kilometrdan oshmaydigan holatda skuter sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

Demak, skuterlarni ro‘yxatdan o‘tkazish ishlari ayni paytda amalga oshirilyapti. Fuqarolar o‘zlari yashaydigan shahar yoki tumandagi yo‘l harakati xavfsizligi xizmatining ro‘yxatdan o‘tkazish va imtihon olish bo‘linmalariga ariza bilan murojaat qilishi kerak.

Farg‘ona viloyati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi xulosa sifatida fuqarolarga quyidagilarni eslatadi:

– har qanday transportda – xoh mototsikl, xoh skuter yoki avtomashinada bo‘lsin, yo‘l harakati qoidalariga qat’iy amal qiling;

– skuterlarni boshqarishni haydovchilik guvohnmasi va tajribasi bo‘lmagan ayollar yoki yosh bolalarga ishonib topshirmang;

– 1 oktabrga qadar o‘zingiz yashaydigan shahar yoki tumandagi yo‘l harakati xavfsizligi xizmati guruhlariga murojaat qilib, ulovingizni ro‘yxatdan o‘tkazib oling. Aks holda, ushbu sanadan boshlab, hujjatsiz skuterlarga belgilangan tartibda jarima qo‘llaniladi.

Abduvosit SIDIQOV,
o‘z muxbirimiz.
Farg‘ona viloyati.

ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

СОАТДЕК АНИҚ ИШЛАЙДИ...

Пахтакор тумани ички ишлар органлари ходимлари қотилликда гумон қилинаётган шахсни ушлаш учун ҳамма чораларни кўришаётганди. Жумладан, жиноятчининг қўшни республика фуқароси эканлиги боис чегара ҳудудларида назорат кучайтирилди. У яшириниши мумкин бўлган барча манзиллар кўздан кечирила бошланди. Мазкур шахс билан яқин муносабатда бўлганлар кузатувга олинди.

Натижада қочоқнинг туман марказида чўлқуварлар учун вақтинчалик қурилган аҳоли пунктида яширингани аниқланди. Ана шу маълумот асосида ИИБ ходимлари ҳудудни ўраб олиб, тураржойларни бирма-бир кўздан кечира бошладилар. Хусусан, сержант Норқул Тайланов уйлардан бирининг деразасидан ичкарига қарар экан кроват остига беркинган эркакни кўриб қолди.

Қонун ҳимоячиси қулай фурсатни қўлдан чиқармаслик мақсадида сездирмасдан уйга кирди ва кроватни кўтарганча қочоққа ташланди. Жиноятчи қаршилик кўрсата бошлади. Аммо сержант эпчиллик билан рақибининг пичоқ тутган қўлини қайирди. Шу тариқа туман пахта тозалаш корхонасида ишловчи, рашк туфайли бир қизнинг жонига зомин бўлган эркак қўлга олинди.

Табиийки, фаолият бошлаганига икки йил ҳам тўлмаган конвой милиционерининг жасорати раҳбарият эътиборидан четда қолмади. Унга пойтахтдаги ИИВ олий милиция мактабида ўқиш учун йўлланма берилди. Норқул Тайланов мазкур таълим муассасасида 1986–1990 йилларда таълим олди. Сўнг хизматни Галлаорол тумани ИИБ давлат мулкини талон-торож қилишга қарши курашиш бўлинмасида давом эттирди. Худди шундай, Жиззах ҳамда Сирдарё вилоятлари Ички ишлар бошқармаларида катта тезкор вакил, бўлинма бошлиғи лавозимларида фаолият юритди.

У қаерда меҳнат қилмасин, олдинги сафларда бўлишга интилди. Натижада ўнлаб жиноятларни фош қилишга эришди, кўплаб шогирдлар тарбиялади. Ҳар бир ишни вақтида масъулият билан бажаришидан завқланган ҳамкасблари унга «Соатдек аниқ ишлайди» тарифини қўллашарди. Қолаверса, шахматшашка ишқибози сифатида қатор ютуқларни қўлга киритди.

Чунончи, 1984 йилда ички ишлар органлари ходимлари ўртасида шашка бўйича уюштирилган республика миқёсидаги мусобақада биринчи, 1989 йили эса шахмат бўйича соҳа вакиллари иштирокида ўтказилган мамлакат биринчилигида иккинчи ўринни эгаллади. Худди шундай, вилоят ИИБ волейбол терма жамоаси таркибидан жой олди. Норқул Тайланов 2002 йилда майор лавозимида истеъфога чиқди.

— Ички ишлар органларида нимагаки эришган бўлсам, истеъфодаги подполковниклар – Шукур Каримов, Бахтиёр Эралиев, Хайрулла Нурбоев ҳамда полковник Абдували Дарминов каби устозларим туфайлидир, — дейди мақоламиз қаҳрамони. — Улар ҳамиша менга суянч бўлишди, хато қилсам, тўғирладилар, йўл-йўриқ кўрсатдилар. Уларнинг ўгитлари бутун ҳаётим, меҳнат фаолиятим давомида ҳам асқатди.

Дарҳақиқат, у соҳадаги хизматини тамомлагач, прокуратура ва адлия тизимларида ишлади ва ички ишлар органларида эгаллаган кўникма ва тажрибалари кенг қўллади. Натижада адлия кичик маслаҳатчиси, 3-даражали адлия маслаҳатчиси унвонларига эга бўлди. Айни вақтда вилоят фахрийлар кенгашининг фаол аъзоси. ИИВ Жиззах академик лицейида юрисконсульт бўлиб ишлаётган мақоламиз қаҳрамонининг фарзандларидан бири ҳуқуқшунос, бири шифокор, бошқаси тадбиркор, кенжаси ишлаб чиқариш корхонасида экспедитор.

Унинг укаси Зафар Тайланов ҳам оғасининг изидан бориб айни вақтда Тошкент шаҳар ИИББда бўлим бошлиғи, подполковник.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
ўз мухбиримиз.

Жиззах вилояти.

ҚОНУНЧИЛИКДАГИ ЯНГИЛИКЛАР

КРЕДИТОРЛАРНИНГ ТАЛАБЛАРИ ҲИСОБГА ОЛИНДИ

Маълумки, 2025 йил 22 апрелда «Кредиторларнинг гаров билан таъминланган талабларини қаноатлантириш тизими янада такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида»ги қонун қабул қилинган эди. Мазкур қонунга мувофиқ Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодексига, Солиқ кодексига, «Гаров тўғрисида»ги қонунига, «Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тўғрисида»ги қонунига, «Ипотека тўғрисида»ги қонунига ўзгартириш ва қўшимчалар киритилди.

Хусусан, Фуқаролик кодексининг 279-моддасига киритилган тўлдиришга кўра, агар гаров билан таъминланган, қарздор томонидан қопланмаган мажбуриятнинг суммаси гаров қийматининг ўн беш фоизидан камроқни ташкил қилса, гаров билан таъминланган мажбурият бажарилишининг кечикиши кетма-кет уч ойдан ошмаган бўлса, гаров билан таъминланган мажбуриятнинг бузилиши мазкур шартлар бир вақтнинг ўзида мавжуд бўлган тақдирда, жуда арзимас деб ҳисобланади.

Кодекснинг 280-моддаси тўртинчи қисмининг 1-банди қуйидаги таҳрирда баён этилди: **«қонунда бошқа шахснинг ёки органнинг гаров тўғрисида шартнома тузиш учун розилиги ёхуд рухсати ҳақидаги талаб белгиланган бўлса, бундан мазкур мол-мулкни гаровга бериш чоғида зарур бўлган розилик ёки рухсат олинган ҳоллар мустасно».**

Кодекснинг 281-моддасининг иккинчи ва учинчи қисмлари эса қуйидаги таҳрирда баён этилди: **«Гаровга қўйилган, суддан ташқари тартибда ундирув қаратилган мол-мулк кимошди савдосида сотиш, бевосита сотиш, кредитга, лизингга, ижарага бериш, бўлиб-бўлиб сотиш йўли билан ёки қонунчиликда тақиқланмаган бошқа битимлар орқали реализация қилиниши мумкин.**

Гаровга қўйилган мол-мулкнинг кимошди савдосидаги бошланғич сотиш нархи гаровга қўювчи ва гаровга олувчи ўртасидаги келишувга асосан белгиланади.

Гаровга қўювчи ва гаровга олувчи ўртасида мол-мулк нархи бўйича келишмовчиликлар мавжуд бўлган тақдирда, мустақил баҳоловчи ташкилот жалб этилади ва гаровнинг дастлабки қиймати бозор қийматидан келиб чиқиб белгиланади. Бунда баҳолаш билан боғлиқ барча харажатлар мустақил баҳоловчи ташкилотни жалб қилган тараф томонидан қопланади».

Кодекснинг 285-моддасига киритилган тўлдиришга кўра, гаров нарсаси бўлган мол-мулк гаровга қўювчидан жиноят ёки бошқа ҳуқуқбузарлик содир этганлик учун қонунда белгиланган тартибда олиб қўйилганда, гаровга олувчида ўз талабларини ушбу мол-мулк ҳисобидан устувор тарзда қаноатлантириш ҳуқуқи сақлаб қолинади.

Шунингдек, Кодекс 746[1]-модда билан тўлдирилди. Унга кўра кредитни муддатидан олдин суд тартибида ундиришда, агар шартномада бошқача тартиб назарда тутилган бўлмаса, кредитор дастлаб қарзнинг белгиланган муддатда қайтарилмаган қисмини ундириш учун судга мурожаат қилади. Қарз олувчи муддати ўтган қарзни тўлиқ тўламаган тақдирда, кредитор кредитнинг қолган барча суммасини муддатидан олдин қайтариш ҳақидаги талаб билан судга мурожаат қилишга ҳақли эканлиги белгиланди.

Ўйлаймизки, ушбу Қонун кредиторларнинг гаровга қўйилган мол-мулкка нисбатан ҳуқуқлари устуворлигини таъминлашга, гаров нарсасини суддан ташқари тартибда реализация қилиш тизимини такомиллаштиришга, мажбуриятларни гаровга қўйилган мол-мулк ҳисобидан ундириш жараёнларини соддалаштиришга хизмат қилади. Шунингдек, кредит ташкилотларининг кредит портфелидаги муаммоли активлар улушини камайтиришга имкон яратади.

Умид АЛИЕВ,
Тошкент туманлараро иқтисодий судининг судьяси.

Грани мастерства

РЕШАЯ ВОЗЛОЖЕННЫЕ ЗАДАЧИ

Старшего специалиста группы миграции и оформления гражданства ОВД города Кагана майора Уткира Ражабова коллеги по праву называют профессионалом своего дела.

Окончив Бухарский государственный университет, У. Ражабов некоторое время осуществлял педагогическую деятельность. Затем было обучение на Высших курсах по подготовке сержантского состава Академии МВД. С 2010 года он служит в рядах сотрудников органов внутренних дел. В нынешней должности У. Ражабов – около пяти лет.

За минувший период года группой оформлены ID карты для почти 4000 граждан, еще 1 400 обратившимся выданы загранпаспорта. В отношении 170 граждан и 15 иностранцев оформлены административные протоколы и наложены штрафы за нарушение установленных правил. В ходе профилактических мероприятий «Безопасная и здоровая страна» совместно с инспекторами профилактики оформлены протоколы по месту жительства в отношении 127 иностранцев, взятых на постоянный учет, и 24 лиц без гражданства.

Майор У. Ражабов и его коллеги демонстрируют слаженную работу, благодаря которой группа успешно справляется с возложенными задачами.

Мирзокул АХАДОВ,
соб. корр.
Бухарская область.

Служба кинологии

ЧУТЬЕ СЭМА НЕ ПОДВЕЛО

Сотрудники, несшие службу на посту ДПС «Сангзор-15» в Галляаральском районе, остановили для досмотра автомашину марки Lacetti. Документы не вызывали подозрений. Но служебная собака по кличке Сэм кинолога отдела кинологии СОБ областного УВД рядового Шавката Бегимкулова начала лаять в сторону машины.

Чутье лабрадора не подвело. За решеткой системы кондиционирования обнаружили синтетическое сильнодействующее наркотическое вещество весом 0,4 грамма, завернутое в пятитысячную купюру. Кроме того, в разных частях салона были спрятаны 5 граммов марихуаны и другие психотропные вещества.

В текущем году наши коллеги раскрыли 11 краж, 31 преступление, связанное с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ, выявлено 5 преступлений, связанных с охотничьим оружием. У подозреваемых изъято более 337 граммов марихуаны, 13,91 грамма опия, 204,8 грамма гашиша и 8 кустов наркотических растений. Совместно с сотрудниками других служб задержаны 6 лиц, находившихся в розыске.

Ахрор АБУЛКОСИМОВ,
капитан.
Джизакская область.

КОГДА РЯДОМ НАДЕЖНЫЙ ПОМОЩНИК

Инструктор-кинолог отделения кинологии отдела охраны общественного порядка СОБ УВД Наманганской области рядовой Бунёд Анорбоев со служебной собакой по кличке Макс нес службу на посту ДПС в Нарынском районе. Во время осмотра грузового отсека автомашины Isuzu пес повредил заднюю лапу.

Кинолог повел четвероного помощника к ветеринару. Пса обследовали, назначили курс лечения. Через неделю Макс поправился и смог продолжить службу.

Вскоре кинолог и его собака выехали в составе следственно-оперативной группы на место происшествия. В нише заднего сиденья автомашины Nexia, принадлежащей гражданину А.А., Макс обнаружил 0,75 грамма наркотического средства...

Б. Анорбоев вместе с Максом принимают активное участие в профилактических и специальных мероприятиях, проводимых в масштабе области. При содействии пса раскрыто 7 краж и преступление, связанное с незаконным оборотом наркотиков.

В настоящее время рядовой Б. Анорбоев с питомцем готовятся к республиканскому этапу конкурса «Кинолог-отличник».

Шахзодбек АМИНЖОНОВ,
старший сержант.
Наманганская область.

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

YANGI O'ZBEKISTON BUNYODKORLARI

(30-IYUN – YOSHLAR KUNI)

Yurtimizda yoshlarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash hamda tashabbuslarini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi to'qqiz yil yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iste'dod va salohiyatini ro'yobga chiqarishda «katta sakrash davri» bo'ldi, desak, sira mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, shu muddat ichida yoshlarga oid yuzdan ziyod qonun va qaror qabul qilinib, ikki yuzdan ortiq imtiyoz berildi.

Asosiy qonunimizning XIV bobi «Oila, bolalar va yoshlar» deb nomlangani hamda uning 78-moddasi to'rtinchi bandida «Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi», deyilishi Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligining yaqqol dalilidir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 79-moddasi birinchi bandida esa «Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi», deb alohida qayd etilgan. Mazkur moddaning ikkinchi bandiga ko'ra: «Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi». Eng asosiysi, mazkur konstitutsiyaviy normalar nafaqat O'zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va mamlakatimizning kelgusi taqdiri uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Navqiron avlodimiz vakillari tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz «Yoshlar Konstitutsiyasi» deya e'tirof etilayotgani ham bejiz emas.

2016-yil 14-sentabrda «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. 2020-yil 30-iyunda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2021-yil 20-aprelda «Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda 2024-yil 21-fevralda «O'zbekiston–2030 strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonlar e'lon qilindi. Ular ijrosini ta'minlash bo'yicha qator qarorlar qabul qilingan.

Bunyodkor so'zini biz asosan bino yoki inshootlar quruvchilariga nisbatan ishlatamiz. Lekin O'zbekiston, Vatan degan ulug' bino, buyuk bir inshoot ham borki, uni dunyoga tanitish, uning obro'yi va nufuzini oshirish yo'lida jon nisor qilayotganlarni, hech ikkilanmasdan, O'zbekiston bunyodkorlari, deb ataymiz. Osiyo chempioni bo'lgan 17 yoshli o'smirlarni, yaqinda jahon championatiga yo'llanmani qo'lga kiritgan futbol bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zolarini, olimpiada championlari, shaxmat bo'yicha xalqaro grossmeysterlar, fan olimpiadalarida g'olib chiqqan o'smirlarimizni O'zbekiston bunyodkorlari, desak, sira mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimizning 2024-yil 27-iyundagi «Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, yoshlarni o'qitishga, ilm olishlari uchun shart-sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilib, **150 ming nafardan ziyod yigit-qizlar ta'lim kreditidan foydalandi.** Ehtiyojmand oilalarda o'sgan **110 ming nafar talabaning kontrakt pullari** davlat tomonidan to'lab berildi. Bu maqsadar uchun **332 milliard so'm ajratildi.** Yaratilgan imtiyozlar tufayli **«El-yurt umidi» jamg'armasi** orqali yetti yilda AQSHning «Pechak ligasi»ga kiruvchi Garvard, Yel, Kolumbiya, Stenford kabi top-8 ta, Buyuk Britaniyanining «Rassell guruhi»dagi Oksford, Kembridj, Birmingem kabi **24 ta oliygohlarda 50 nafardan ziyod yoshlarimiz tahsil olib kelishdi.** Ayni damda **110 ming nafar o'g'il-qizimiz xorijda tahsil olmoqda.**

O'tgan yili 14 mingdan ziyod o'quvchi maktablarni oltin va kumush medallar bilan bitirdi. Maktab o'quvchilari «Katta beshlik» fan olimpiadalarida qo'lga kiritgan medallar soni oxirgi to'rt yilda ikki barobarga oshdi. Xorijiy oliygohlarda o'qish uchun yoshlarimiz matematika, ingliz tili va ilmiy fikrlash bo'yicha «AST» imtihonini topshirishmoqda. **Mazkur testlarda 75 foizdan yuqori natija ko'rsatgan o'quvchilar chet elning eng nufuzli oliygohlariga grant yutishmoqda.**

O'z navbatida, ichki ishlar organlarida ham istiqbolli yosh xodimlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlashda izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.

Maqolani qoraqalpoq tilida ushbu QR-kod orqali o'qishingiz mumkin.

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI

MAQSAD – XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi tomonidan biriktirilgan hududlarda yo‘lovchilar xavfsizligini ta’minlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va jamoat tartibini saqlashda mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib kelinmoqda.

Ta’kidlash joizki, boshqarma xizmat ko‘rsatish hududining umumiy uzunligi 1028 kilometrni tashkil etib, uning tasarrufida Qoraqalpog‘iston, Bo‘ston, Xo‘jayli, Nukus, Miskin bo‘linmalari, shuningdek, Nukus xalqaro aeroportida xavfsizlikni ta’minlash bo‘linmasi mavjud.

– Joriy yilning 5 oyi davomida olib borilgan ishlar natijasida 18 ta jinoiy holat aniqlandi. Jinoyat qidiruv sohasi bo‘yicha 10 tadan 9 taga, iqtisodiy jinoyatlar 8 tadan 6 taga kamayishiga erishildi. Albatta, jinoyatlar sonining kamaygani ijobiy holat, lekin biz bu bilan cheklanib qolmaymiz, – deydi boshqarma boshlig‘i, mayor Akmal Abdirahmonov.

Huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olishda profilaktik ishlar muhim ahamiyatga ega. Shu bois boshqarmaga qarashli hududlarda xodimlar tomonidan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni», «Temiryo‘llarda xavfsiz kun», «Qoradori», «Dori-darmon», «Tun» va «Qidiruv» kabi tadbirlar muntazam ravishda o‘tkazib kelinadi. Ushbu tadbirlar doirasida hududlar xavfsizligini ta’minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, temiryo‘l inshootlariga shikast yetkazmaslik kabi ko‘plab yo‘nalishlar bo‘yicha profilaktik-tushuntirish ishlari amalga oshirib borilmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o‘z muxbirimiz.

FIDOYI XODIMLAR

MAS’ULIYAT ZALVORI

IIV huzuridagi JIED 3-mintaqaviy hudud 7-son tergov hibsxonasi boshlig‘ining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari mayor Sherali Yarlakabov bugungi ishni ertaga qo‘ymaydigan, ko‘zlagan maqsadlariga intiladigan, doimo yangiliklardan boxabar bo‘lishga odatlangan. Mana 14 yildirki, ichki ishlar organlari tizimida faoliyat olib boradi.

Inson o‘z mehnati bilan qadr topadi. Suhbatdoshimiz ham bugungi muvaffaqiyatlariga hamisha izlanish, o‘ziga talabchanlik va yangilikka intilishi, burchiga sadoqati tufayli erishgan. U hamisha zimmasidagi mas’uliyat zalvorini his etib turadi.

– Burch – bu fidoyilik va ishonchdir, – deydi u. – Ota-onaning farzand oldidagi yoki aksincha farzandlarning ota-ona oldidagi burchi bo‘lgani kabi, bizning ham elimiz oldida burchimiz bor. U ham bo‘lsa, tinchlik, osoyishtalikni ta’minlash, hududlarni jinoyatchilikdan holi hududga aylantirish. Bunda mehnatdan qochmasdan, hayot qiyinchiliklarini sabr bilan yenga olsangiz, albatta, sohada muvaffaqiyatga erishasiz.

Lavhamiz qahramoni dastlabki tergov jarayonidagi gumon qilinuvchilar va ayblanuvchilarni vaqtincha saqlash, ularga tegishli huquqiy sharoitlar yaratish hamda qonunchilik talablariga rioya etilishini qat’iy nazorat qiladi.

– Hibsxonada saqlanayotgan shaxslarning huquqlari va erkinliklari qonun bilan himoya qilinadi, – deydi mayor Sherali Yarlakabov biz bilan muloqotda. – Shifokor nazorati, huquqshunoslar bilan uchrashish imkoniyati, qarindoshlari bilan muloqot qilish huquqi va boshqa qonuniy kafolatlar ta’minlanadi. Ba’zida bu yerdagilarni ko‘rib, diydasi qattiqligiga, kimgadir nisbatan zulm ko‘rsatishiga oiladagi muhit, yaqinlarining befarqligi sabab bo‘lmadimikan, deb o‘ylanib qolaman. Ularda tushkunlik, asabiylik va tajovuzkorlik kuzatiladi. Yolg‘izlik va uzoq muddat ijtimoiy munosabatlardan ajralish shaxsning xarakteriga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, o‘zini keraksiz yoki unutilgan, deb his etishi mumkin. Shu bois bu yerdagi har bir shaxs e’tiborda.

Mayor Sh. Yarlakabov turmush o‘rtog‘i, pedagog Fotima opa bilan ikki o‘g‘il, ikki qizning tarbiyasida bir-birlariga maslakdosh. Ularning xonadonida kechki ovqatdan keyingi suhbatlar mavzusi kitobxonlik va ilm olish, odobli farzand bo‘lishga bag‘ishlanadi. Sherali aka ota-onasining pand-nasihatlarini o‘zining oltin qoidasi deb biladi. Ulardan olgan yaxshi tarbiyasini farzandlariga ilinadi, ibratli turmush yo‘llariga andoza, deya qaraydi.

– Hayot maqsadsiz zerikarli bo‘ladi, – deydi shogirdi safdor Qamariddin Fayzullayev. – Siz uchun nima muhimligini aniqlab oling va hayotingizni mana shu asosda quring. Ustozim biz shogirdlariga ana shu so‘zlarni tez-tez ta’kidlaydi. Ulardagi qat’iyatlilik va sabrlilikka havas qilaman. Tezda xulosa chiqarmasdan, vaziyatni har tomonlama o‘ylab, chuqur tahlil qilib, mushohada yuritadilar. «Shoshqaloq bo‘lma, har bir ishda aqlga tayanishing lozim» degan so‘zlariga amal qilib, ustoz tanlashda adashmaganimni his etaman.

Umida MAMADALIYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.

Suratda: *mayor Sherali Yarlakabov hamda kichik serjant Shuhrat Murodov xizmat jarayonida.*

Урок духовности и просвещения

СОЗИДАТЕЛИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

(30 июня – День молодежи)

Молодость – не просто этап жизни, это движущая сила, импульс к развитию, источник инноваций и перемен.

В Узбекистане обеспечение прав и интересов молодежи, воспитание юношей и девушек гармонично развитыми личностями – приоритет государственной политики. Именно на целеустремленное подрастающее поколение опирается народ в достижении высоких целей по построению Нового Узбекистана.

ДЕЙСТВЕННАЯ СИСТЕМА

В стране создана эффективная система работы с молодежью.

Она охватывает все уровни – от махалли до республиканского, позволяет решать вопросы, связанные с обучением, занятостью, социальной поддержкой молодежи.

Лидеры молодежи, выступающие в роли представителей Президента в махаллях, – ключевое звено. Они координируют духовно-просветительские проекты, содействуют предпринимательству, организовывают профессиональное обучение, во взаимодействии с правоохранительными органами осуществляют деятельность по укреплению правопорядка и созданию в махаллях безопасной территории.

Масштабная работа ведется на основе «Молодежной тетради» и платформы «Баланс молодежи». Она дает реальные результаты. Так, в целях повышения доходов за счет выделения земельных участков только в 2024 году 156 тысячам молодым людям передано в аренду 60 тысяч гектаров земли сроком на 30 лет. Это не просто цифры. Это возможность начать свой бизнес, внести вклад в развитие страны.

В последние годы особое внимание уделяется повышению социально-политической активности молодежи. Воплощается в жизнь инициатива «Мы – за молодежь в парламенте!» Широко привлекаются к работе парламента и местных Кенгашей народных депутатов политически зрелые и активные молодые люди. В Кенгашах, как в Сенате и Законодательной палате, организованы школы представителей молодежного парламента. Формируется резерв управленческих кадров по программам «Лидеры будущего», «Школа хокимов», «Школа женщин-руководителей».

ОСНОВА УСПЕХА

В приоритете вопросы образования. Функционируют 201 высшее учебное заведение, 598 техникумов. Созданы принципиально новые по содержанию и форме Президентские, творческие и специализированные школы. Запускаются новые программы, электронные платформы с целью повышения качества и результативности учебно-воспитательной работы на всех этапах образования.

Учащиеся Узбекистана одерживают победы на престижных предметных олимпиадах. В минувшем году в олимпиадах по математике, химии, биологии, физике, информатике 55 ребят завоевали 8 золотых, 15 серебряных и 32 бронзовые медали. В сфере культуры и искусства молодые таланты также продемонстрировали выдающиеся результаты: 383 человека были удостоены Гран-при, а 1359 заняли первые места на авторитетных конкурсах.

Многие наши одаренные юноши и девушки учатся, проходят стажировки в ведущих зарубежных вузах за счет средств Фонда «Эл-юрт умиди». По линии Фонда 2225 стипендиатов направлены в 45 стран. Цель – воспитать преемников Навои, Беруни, Ибн Сино, Мирзо Улугбека, Хорезми, Фергани.

НОВЫЕ ЛИЦА, НОВЫЕ ПОДХОДЫ

В органах внутренних дел ответственную службу несут энергичные, высокомотивированные молодые сотрудники. В условиях стремительно изменяющегося мира, нарастающих транснациональных угроз они эффективно выполняют возложенные задачи. Сотрудники, выросшие в цифровую эпоху, привносят в службу свежие идеи, способны использовать современные технологии, аналитические системы. Они формируют новый имидж правоохранительных органов. При этом служат, равняясь на наставников, сохраняя лучшие традиции органов правоохраны.

МЕЖДУНАРОДНОЕ ПРИЗНАНИЕ

Работа, осуществляемая в Узбекистане в области молодежной политики, получает признание в мире. Согласно Индексу развития молодежи, Узбекистан – одна из наиболее быстро развивающихся стран в сфере молодежной политики. ООН включила республику в число 10 стран мира по образцовой реализации «Молодежной стратегии – 2030».

Утверждение Узбекистана как лидера в молодежной политике проявляется и в выборе его городов для проведения международных мероприятий. Кульминацией этого явился Всемирный фестиваль молодежи, проходивший в нашей стране в июне прошлого года. В масштабном форуме приняли участие свыше 700 юношей и девушек из 92 стран, а также ответственные лица более 20 международных организаций, министерств и ведомств зарубежных государств. Фестиваль продемонстрировал открытость молодежи Узбекистана, ее активное участие в глобальном диалоге и сотрудничестве.

ТВОРЦЫ ЗАВТРАШНЕГО ДНЯ

Государство, в котором юноши и девушки образованы, уверены в своих силах и потенциале, несомненно, ждет прекрасное будущее. Президент Шавкат Мирзиёев подчеркнул: «Мы, как и весь наш народ, в достижении стоящих перед нами великих целей опираемся прежде всего на обладающую знаниями, профессиями, предприимчивую, патриотичную и всесторонне развитую молодежь».

Радик ТУМПАРОВ,
кандидат педагогических наук.

SOHA FIDOYISI

VAQTIDA QILINGAN HARAKAT

jinoyatning oldini oldi

Mamlakatda barqarorlikni ta'minlash hududlarda xizmat olib borayotgan profilaktika inspektorlarining o'z vazifasiga qay darajada yondashishiga, mahalla faollari va aholi bilan hamkorligiga bevosita bog'liq.

Poytaxtimizning Yunusobod tumani «Registon» mahallasida joylashgan 547-ichki ishlar organlari tayanch punkti profilaktika inspektori, katta leytenant Behzod Yusupjanov o'ziga biriktirilgan hududdagi fuqarolar bilan mustahkam aloqa o'rnatgan.

– Mahallada asosan yerli – 534 ta xonadon, yana 3 ta ko'p qavatli uy bo'lib, ularda 64 ta xonadon mavjud, – deydi «Registon» MFY raisi Shuhrat Boltaboyev. – Aholining umumiy soni 2400 nafardan ortiq. Hudud uncha katta bo'lmasa-da, 3 ta xususiy maktabgacha ta'lim tashkiloti, bir nechta savdo shoxobchalari hamda 1 ta xususiy shifoxona qad ko'targan.

Mahalla ikki yildan buyon «yashil» toifada. Bu mavqeni ushlab turishning o'zi bo'lmaydi. Bunda uzoq yillar ichki ishlar organlarida faoliyat yuritgan mahalla raisi, iste'fodagi polkovnik Shuhrat Boltaboyevning ham alohida o'rni bor. U mana bir necha yildirki, yosh xodimga o'z tajribalarini o'rgatib kelmoqda. Profilaktika inspektori ham sohaviy, ham hayotiy masalalarni hal etishda polkovnikdan o'rganishdan erinmaydi. Shuningdek, u har bir huquqbuzarlik va jinoyat qilishga moyil shaxslarni o'z vaqtida aniqlash hamda ular bilan profilaktik suhbat olib borish ishlarini puxtalik bilan olib boradi.

Yaqinda mahallada sodir etilishi mumkin bo'lgan bir jinoyatning oldi olindi. Davlat raqam belgisisiz, orqa va old oynalari qoraytirilgan qora rangli «Gentra» avtomashinasi mahalla hududida paydo bo'ladi. Begona avtoulov, boz ustiga, davlat raqam belgisi yo'qligi fuqarolardan birida shubha uyg'otadi va tezda profilaktika inspektoriga qo'ng'iroq qiladi. Zudlik bilan voqea joyiga yetib borgan xodim, avtomashinaga yaqinlashadi va shubhali haydovchining shaxsiga aniqlik kiritish maqsadida u bilan muloqotga kirishadi. U o'zining kimligini ma'lum qilmaydi. Yuzida qora tibbiy niqob va qo'lida qora qo'lqop bo'lgan kimsa o'zini bejo tuta boshlaydi.

Hushyor xodim tezda patrul-post xodimlariga xabar qiladi. Buni kuzatib turgan «Gentra»dagi kas qochishga tushadi. Abjir va chaqqon profilaktika inspektori, tezda o'z avtoulovida uning ortidan quvib yetib, shubhali shaxsni qo'lga oladi va voqea joyiga yetib kelgan PPX xodimlari bilan uni tuman IIOFMBga topshiradi.

Buni qarangki, gumonlanuvchidan olingan daliliy ashyolar jinoyat sodir etish uchun uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rilganidan darak berib turardi. Ya'ni, xolislar ishtirokida olingan buyumlar orasida – avtomashina yukxonasiga yashirib qo'yilgan davlat raqam belgisi, pichoqlar, arqonlar, skotch, hatto ayollar uchun mo'ljallangan soch parigi va boshqa bir nechta jinoyat sodir etishda foydalanadigan narsalar borligi ma'lum bo'ldi.

Olib borilgan surishtiruv ishlari natijasida gumonlanuvchi shaxsning 2000-yil Andijon viloyatida tug'ilgan M.T. ekanligi aniqlandi. U jinoiy sheriklari bilan birovning xonadoniga kirib, boyligiga ega chiqmoqchi bo'lgan, ammo maqsadiga erisha olmagan.

– Katta bir jinoyatning oldi olindi, – deydi mahalla faollaridan biri Nizomiddin Siddiqov. – Ashyoviy dalillardan ma'lumki, bu holat sodir etilsa, kattagina fojiaga sabab bo'lishi mumkin edi. Buni o'z vaqtida aniqlab, bartaraf etgan profilaktika inspektorimizga rahmat. Bizning mana shunday himoyachimiz borligidan g'ururlanamiz.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

TO'MARIS IZDOSHLARI

OTA-ONAMNING DUOSI KUCH BERADI

– deydi safdor Dinora Beknazarova

Toshkent viloyati IIBB JXX JTSB PPX batalyoni ijtimoiy-siyosiy, ommaviy-madaniy tadbirlarni o'tkazishda xavfsizlikni ta'minlash otryadi tekshirish, kuzatish va tezkor harakatlanish guruhi inspektori, safdor Dinora Beknazarova fidoyi xodimlardan biri. U 10 yildan buyon ichki ishlar organlari safida.

– Xizmat formasini ilk bor egnimga kiygan kunim mendan baxtli odam bo'lmagan. O'sha kunni doim boshqacha kayfiyatda eslayman. Taqdirimdan, kasbimdan va shu imkoniyatni yaratib bergan ota-onamdan hamisha minnatdorman. Ularning qo'llovi menga kuch beradi. Ayniqsa, meni formada ko'rib g'ururlanishadi, – deydi lavhamiz qahramoni.

Xodimaning otasi Hoshimbek Beknazarov OKMKda uzoq yillar ishlab pensiyaga chiqqan. Onasi Dilorom Beknazarovaning kasbi esa hamshira.

Safdor Dinora Beknazarova uch qiz, bir o'g'ilning mehribon onasi. Ikki qizi musiqaga ixtisoslashtirilgan maktabda tahsil oladi. O'zi maktab davrida qo'l jangi bilan professional tarzda shug'ullanib, ko'plab musobaqalarda munosib ishtirok etgan. Kitobga oshno xodima, hozir Toshkent davlat agrar universitetida sirtdan tahsil olmoqda. Uyida jahon adabiyotining nodir qo'llanmalarini ham topish mumkin. Farzandlari unga havas qilib, kelajakda xodim bo'lishni niyat qilgan.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

SPORT

YOSHLARIMIZ MARKAZIY OSIYODA IKKINCHI

IIV «Jar» sport-sog‘lomlashtirish majmuasida 10-16 iyun kunlari Markaziy Osiyo voleybol assotsiatsiyasi (CAVA) tomonidan 16 va 19 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar milliy terma jamoalari o‘rtasida voleybol bo‘yicha Markaziy Osiyo chempionati o‘tkazildi.

16 yoshli o‘g‘il bolalar o‘rtasidagi musobaqada O‘zbekiston voleybolchilari 3-o‘rinni, Qozog‘iston sportchilar 2-o‘rinni va Eron jamoasi faxrli birinchi o‘rinni qo‘lga kiritdi. 19 yoshlilar o‘rtasidagi bellashuvlarda 3-o‘rin Hindiston jamoasiga nasib etdi. Final bahsida eronlik sportchilar 3:0 hisobida O‘zbekiston terma jamoasi ustidan g‘alaba qozonib, chempionlik kubogini qo‘lga kiritdi. Terma jamoamiz 2-o‘ringa munosib deb topildi.

«Eng yaxshi o‘yinchi», «Eng yaxshi hujumchi», «Eng yaxshi to‘p uzatuvchi», «Eng yaxshi libero(himoyachi)», «Eng yaxshi to‘p to‘suvchi» kabi nominatsiyalar bo‘yicha ham g‘oliblar va jamoalarga medallar va qimmatbaho sovg‘alarni O‘zbekiston voleybol federatsiyasi raisining birinchi o‘rinbosari, Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari, general-mayor Bekmurod Abdullayev va O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirining o‘rinbosari Murod Ismoilov tantanali ravishda topshirdi.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.

TERGOVNI BILIMDONLAR OLIB BORADI

ISHSEVARNI EL SEVAR

Har bir kishi, avvalo, jamiyatdagi mavjud qonun-qoidalarga rioya etishi, vijdonan yashashi zarur. Afsuski, buni unutib qo‘yadiganlar ham topiladi.

– Tumanimizda ham yurtdoshlariga firib berish, ishlamasdan pul topishni maqsad qilganlar topiladi. Ular asosan boshqa hududlardan kelib jinoyat sodir etishadi. Shunday qilishsa, qilmishlarini hech kim fosh qila olmaydi, deb o‘ylashadi. Ammo chuchvarani xom sanashadi. Tajribali, mohir xodimlarimiz ko‘p, ularning sa’y-harakatlari tufayli ko‘plab jinoyatlar tezda ochilib, jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararlarning o‘rnini qoplash choralari ko‘rilmoqda, – deydi Bandixon tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi katta tergovchisi, mayor Husniddin Toshtemirov.

Xizmat faoliyatini 2016-yili Boysun tumanida profilaktika inspektori vazifasida boshlagan lavhamiz qahramoni tergov sohasiga qiziqqanligi bois 2017-yildan shu tumanda surishtiruvchi, Qiziriq hamda Angor tuman IIBlarida tergovchi sifatida faoliyatini davom ettirgan.

...Soat Mamatovning (ism-sharifi o‘zgartirildi) yoshi o‘ttizda. Ko‘rinishidan beozor ko‘ringan bu yigit ko‘pchilikni chuv tushirgan. Odamlardan nasiyaga mol olib, qassobchilik qilib, bozorda sotish bilan shug‘ullanardi. Biroq, sotib bo‘lgach, va’da qilingan omonatni egasiga bermay, o‘n kishini chuv tushirib ketadi. Husniddin Toshtemirov esa surishtiruv jarayonida mazkur holatlarning barchasini aniqlab, S.Mamatovga nisbatan qonuniy chora ko‘rilishiga erishdi. Bundan tashqari, lavhamiz qahramoni qidiruvdagi 5 nafar shaxsni ushlanishida, bir nechta epizodli o‘g‘rilik jinoyatlarining «issiq izida» fosh etilishida faollik ko‘rsatgan.

– Xizmat faoliyatim davomida mohir tergovchi bo‘lish uchun mas’uliyatli, tirishqoq, mehnatsevar bo‘lish va albatta, odamlar psixologiyasini tushunish zarurligini angladim. Ustozim va boshqa tajribali xizmatdoshlarimdan ko‘p narsalarni o‘rgandim, hozir ham so‘rashdan, izlanishdan erinmayman. Axir, tajribali insonlarning yo‘l-yo‘rig‘i bizni yaxshi natijaga olib chiqadi, – deydi mayor Husniddin Toshtemirov.

Darhaqiqat, jinoyat ishini adolatli tergov qilish, ayblanuvchi va jabrlanuvchi orasida haqiqatni yuzaga chiqarish, aybdorning qonun oldida javob berishiga erishish oson ish emas. Ammo Husniddin Toshtemirov bunga o‘zining ziyrakligi, sinchkovligi tufayli erishmoqda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o‘z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

YOVUZLIKKA QO‘YILGAN G‘OV

Mana, uzoq kutilgan yoz ham keldi! Maktab sumkalari bir chetga irg‘itilib, darslar unutildi, endi bolalar uch oy mobaynida miriqib dam olishadi. Biz kattalar, tabiiyki, bundan juda xursandmiz. Lekin tan olish kerakki, bo‘sh vaqt qancha ko‘p bo‘lsa, ota-onalar shuncha xavotirga tushishadi. Ayniqsa, hozir, bolalarimizning bolaligi biznikidan tubdan farq qilgan zamonda...

Esingizdami: yaqinginada ham ko‘cha va hovlilar shodon qahqaha, baland hayqiriqlar va futbol o‘yini shovqinlari bilan to‘lib toshardi. Bolalar bekinmachoq o‘ynashar, to‘sinlarda tortilib, o‘zaro kuch sinashardi. Bugungi manzara esa tamoman boshqacha. Ko‘pincha o‘smirlarni smartfonga egilgancha tarmoq o‘yinlari olamiga sho‘ng‘igan, zo‘r qiziqish bilan TikTok uchun kontent yaratayotgan yoki messenjerda suhbatlashayotgan holatda ko‘ramiz. Hovlidagi o‘yinlar o‘z o‘rnini raqamli olamga bo‘shatib, o‘tmishda qolib ketayotganga o‘xshaydi.

Shu o‘rinda beixtiyor savol tug‘iladi: qaysi biri yomon – hamma vaqt tarmoqda o‘tiradigan bolami yoki kun bo‘yi ko‘chada o‘ynagan bola? Bir qarashda, javob aniqdek ko‘rinadi. «Ko‘cha xavf-xatarga to‘la!» deydi kimdir. «Doimiy internetda o‘tirish – umr zavoli!» deya e’tiroz bildiradi boshqasi.

Albatta, ko‘chaning o‘z xavfli tomonlari bor, masalan, yomon odamlarga duch kelish, muammoli va noxush holatlarga tushib qolish, jarohat olish ehtimoli yo‘q emas. Ichki ishlar organlari xodimlari buni hammadan ko‘proq bilishadi. Aynan shuning uchun patrullash kuchaytirilib, profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda ish olib boriladi, profilaktik suhbatlar va uchrashuvlar o‘tkaziladi. Asosiy vazifa – bolalar sho‘x-shodon o‘ynashi va kamol topishi mumkin bo‘lgan eng xavfsiz muhitni yaratish. Lekin ko‘chada har bir qadamni to‘liq nazorat qilishning imkoni yo‘q.

Internet haqida nima deyish mumkin? Ba’zilarning nazarida, u xavfsiz, chunki bola uyda, nazorat ostida bo‘ladi. Lekin bu tashqaridan shunday ko‘rinadi, xolos. Virtual olam bugungi kunda xuddi biz yashab turgan olam kabi, ba’zan esa undan ham makkor bo‘lib qoldi. Unda farzandlarimizni quyidagi kabi yangi, raqamli tahdidlar kutmoqda. Xususan:

Kiberbulling. Haqorat, ta’qib etish, mish-mish tarqatish – Internet sahifalarida bular chaqmoq tezligida sodir bo‘ladi va ba’zida real hayotdagidan ko‘ra ruhiyatga kuchliroq ta’sir qiladi.

Xavfli kontent. Nomaqbul mazmunga ega saytlar, zo‘ravonlik, ekstremizm, o‘z joniga qasd qilish xatti-harakatlarini targ‘ib qiluvchi guruhlar – bularning bari, afsuski, bir barmoq harakati uzoqligida.

Firibgarlik va tovlamachilik. Bolalar, ayniqsa, o‘ta ishonuvchanlari, aldov yo‘li bilan odamlardan ularning shaxsiy ma’lumoti yoki pullarini oladigan tarmoq qalloblarining qurboni bo‘lib qolishi mumkin.

Demakki, bolani uyda ham, ko‘chada ham nazorat qilishimiz lozim. Farzandlar hayotidagi ishtirokimiz va ularni tushunishimiz muhim ahamiyatga ega.

Xo‘sh, biz, kattalar, hozirgi sharoitdan kelib chiqib, nima qilishimiz kerak?

Olamni «real» va «virtual»ga ajratmay, balki ularni birlashtirish lozim. Farzandlarimiz uchun Internet real hayotning bir qismi, muloqot qilish, axborot olish usuli ekanligini tushunishimiz zarur. Shunchaki taqiqlash noto‘g‘ri – o‘rgatish kerak.

Xabardor bo‘lish. Bolangiz qanday o‘yinlar o‘ynashi, qaysi kanallarni tomosha qilishi, qanday ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini kuzating. Bu haqda u bilan gaplashing. Nazoratchi bo‘lib emas, balki manfaatdor suhbatdosh sifatida muloqot qiling.

Raqamli savodxonlikka o‘rgatish. Shaxsiy ma’lumotlarni begonalarga berish, shubhali havolalar bo‘yicha sahifalarga kirish, Internetdagi odamlar bilan ota-onadan yashirincha uchrashish xavfli ekanini oddiy so‘zlar bilan tushuntiring. Feyk xabarlar va ularni qanday aniqlash mumkinligi haqida suhbatlashing.

Ishonchli muhitni yaratish. Bola Internetda yoki ko‘chada noxush holatga duch kelganida, sizdan jazo olishdan qo‘rqish o‘rniga, yoningizga kelib, bu haqda aytib berishi mumkinligini bilishi kerak. Aynan ishonch – eng yaxshi himoya.

Muvozanatni saqlash. Bolani gadjetlardan butunlay uzoqlashtirish – uni zamonaviy muloqot qilish va axborot olish usulidan mahrum qilish demakdir. Ammo virtual olamga to‘liq g‘arq bo‘lish ham yaramaydi. Sport, ijodkorlik, kitob mutolaasini rag‘batlantiring. Bolaga birga sayr qilish yoki safarga chiqishni taklif qiling.

Yozgi ta’til – dam olish, yangi taassurotlar va rivojlanish vaqti. Keling, uni farzandlarimiz uchun nafaqat qiziqarli, balki xavfsiz qilishga intilaylik. Axir, xavfsizlik – xavf yo‘q degani emas, balki uni ko‘ra bilish va yengib o‘tish qobiliyatidir.

Aziza BOXODIROVA,
mayor.
Gulchehra AZIMOVA tarjimasi.

AYOL VA JAMIYAT

ISHONCH BERUVCHI AQIDA

Toshkent shahar Olmazor tumani IIOFMB 3-sonli IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektori, podpolkovnik Shohida Mirzakarimova ichki ishlar organlarida xizmat boshlaganiga bu yil roppa-rosa yigirma besh yil to‘ladi. Bu muddat shunchaki raqam emas, unda mas’uliyat va sharaf, shogirdlikdan ustozlikka qadar sayqal topgan sharafli xizmat tajribasi bor.

– Bolaligimdan forma kiyganlarga havas qilib, kelajakda, albatta, ichki ishlar organi xodimi bo‘laman, deb orzu qilardim, – deydi u. – Tanlagan soham alohida mas’uliyat talab qilishini, ayniqsa, ayol kishi uchun qiyinchiliklar bo‘lishini bilsamda, IIV Akademiyasiga o‘qishga kirib, uni 2000-yilda tamomladim. Inson yuragiga astoydil maqsad tugib, harakat qilsa, imkoniyat eshiklari bir-bir ochilaverar ekan. Men buni o‘z-o‘zimga ishonch beruvchi aqida, deb bilaman.

Ayni paytda lavhamiz qahramoniga biriktirilgan 16 ta mahalladagi 27 152 ta oilada 43 105 nafar xotin-qiz yashaydi. Joriy yilning shu davriga qadar mazkur hududda tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rgan xotin-qizlarga 23 ta himoya orderi berildi. Mahallalarda xotin-qizlar ishtirokida «Gender zo‘ravonlik», «Giyohvandlik – kelajak kushandasi», «Erta va yaqin qarindoshlar o‘rtasida nikohga qarshi kurashamiz», «Biz zo‘ravonlikka birgalikda barham beramiz» mavzularida davra suhbatlari o‘tkazadi. Xotin-qizlarga muammolar qarshisida yolg‘iz qolmasligini uqtiradi. O‘z o‘rnida, ularga huquqiy maslahatlar beradi.

– To‘rt nafar farzandni onasiman, – deydi «Sebzor» MFYda yashovchi Guljamol Ro‘ziyeva. – Murojaat qilgan arizamni e’tiborsiz qoldirishmadi. Tikuvchilikka o‘qib, sertifikat oldim. Keyin subsidiya asosida tikuv mashinasi berildi. Ayol kishining qo‘lida hunari bo‘lgani yaxshi ekan. Hozir mahalla-ko‘y, qavm-qarindoshlarning og‘irini yengil qilayotganimda xursandman.

– Shohida Mirzakarimova jonkuyar ayol, – deya suhbatimizga qo‘shildi «Sebzor» MFY xotin-qizlar faoli Vazira G‘afurova. – Bilamizki, janjal yoki kelishmovchilik bejiz kelib chiqmaydi. Uning yechimini birgina mas’ul hal etishi qiyin, kelishib, kengashib ish ko‘rish kerak. Ayniqsa, oilaviy masalalarda odamlarni murosaga keltirish mushkul. Chunki har ikki tomonning o‘z haqiqatlari bo‘ladi. Shunday paytlarda Shohida opada keng fikrlilik va mulohaza, murosa qilish bobida alohida qobiliyat borligiga ko‘p bora ishonchim komil bo‘lgan.

Lavhamiz qahramoni har kuni odamlar orasida, ularning muammolari, kezi kelganda, quvonchlariga ham sherik. Uning tabiatiga befarqlik begona. Shu bois ko‘pincha, xizmat hududida kelib chiqqan muammolar, tushunmovchiliklarga oydinlik kiritib, keyingina ko‘ngil xotirjamligini his etadi. Oilasining issiq quchog‘iga qaytganida, Navruza, Shodiyaning mehridaryo onasiga aylanadi. Ularning o‘qishlari, orzu-istaklari bilan qiziqib, ko‘ngildan suhbatlashadi, maslahatlari bilan ularni xato qilmaslikka undaydi.

– Men yosh xodimman, ustozim Shohida opadagi tartib-intizom, qat’iyatga havas qilaman, – deydi leytenant Aziza Sobirova. – Doim vaqtning qadriga yetish kerakligini, uni behuda sarflash imkoniyatni boy berish ekanligini ta’kidlab, sohaning o‘ziga xos jihatlarini batafsil tushuntiradilar.

Sirasini aytganda, ayolning fidoyiligidan ungan ezguliklarga jamiki yaxshi sifatlar yarashadi. Podpolkovnik Shohida Mirzakarimova ham oramizdagi ana shunday insonlardan biridir.

Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,
o‘z muxbirimiz.
Toshkent shahri.

SOHA FIDOYISI

XIZMAT ORTIDAN RAHMAT

Lavhamiz qahramoni – Andijon viloyati IIB JXX YHXB 6-safarbarlik guruhi YPX inspektori, safdor Sharofiddin Sotvoldiyev bir necha yildan buyon yo‘l-patrul xizmati inspektori vazifasida faoliyat olib boradi. Tabiatan kamtar, kamgap, samimiy. Uning fikricha, inson qo‘lidan keldimi, yaxshilik qilishi kerak.

Xizmat vazifasi davomidagi turfa voqealar, insonlar taqdiri, kutilmagan holatlar hamisha uni o‘ylashga, mushohada qilishga chorlaydi.

...Sharofiddin bugun Andijon shahrining Amir Temur ko‘chasidagi aeroport chorrahasidagi harakatni tartibga solish uchun mas’ul. Bu chorrahada shaharga kiruvchi ko‘chalar kesishgani uchun harakat juda tig‘iz. Qatnov bir zum bo‘lsada, tinmaydi. Kuniga minglab mashinalar Andijon shahriga kiradi va shahardan qo‘shni tumanlarga yo‘l oladi. Qolaversa, bu yerdan temiryo‘l ham o‘tgan.

– Har qanday ob-havo sharoitida, tik oyoqda turib, harakatni nazorat qilish odamni charchatib qo‘ymadimi? – so‘radik suhbatdoshimizdan.

– O‘z kasbini sevgan insonga hech bir vazifa qiyinchilik tug‘dirmaydi, – javob berdi u. – Masalan, men ishimning og‘ir tomonini sezmaganman, aksincha, yoqimli jihatlari ko‘p. Deylik, svetofor ishlamay qoldi. Shunday paytda harakatni tartibga solib, mashinalar tiqilinchda qolib ketishining oldini olganingizda, muhim ish bilan shoshayotgan yo‘lovchilarga o‘tib ketishiga yordamlashganingizda, ular minnatdor bo‘lsa, bu katta baxt. Ayniqsa, ota-onamiz ortimizdan yaxshi gaplar eshitsa. Kasbimiz orqali yaqinlarimizga olib beradigan rahmatni hech nimaga tenglashtirib bo‘lmaydi.

Sharofiddin Sotvoldiyev xizmat taqozosi bilan har kuni ko‘plab insonlar bilan muloqotda bo‘ladi. Unga fuqarolar turli savollar bilan murojaat qilib turishadi. Kimdir yo‘l so‘raydi, kimdir jarimalar haqida savol beradi, yana boshqasi yo‘l harakati bilan bog‘liq yangiliklarni bilgisi keladi. Bunday paytda Sharofiddin bor bilimi, zehnini ishga solib, har bir savolga to‘g‘ri va aniq javob berishga harakat qiladi.

Tabiiyki, yo‘l-patrul xizmati xodimlari ba’zan tanqidlarga ham uchrab turadi. Yo‘l harakati qoidalarini buzgan shaxs ko‘pincha aybni o‘zidan emas, uni tartibga chaqirgan YPX inspektoridan qidiradi. Unga bo‘ysunmaslikka urinadi. Sharofiddin har qanday vaziyatda qoidabuzarga bosiqlik bilan munosabatda bo‘lishga intiladi. Qoidabuzarligini tan olmay turgan haydovchi tushuntirishlardan keyin vaziyatga to‘g‘ri baho beradi va inspektorning e’tirozini qabul qiladi.

Suhbat orasida Sharofiddin bir voqeani eslab o‘tdi. «Odatdagi ish kunim edi. Bir mashina tezlikda chorrahadan o‘tib keldi. Uni to‘xtatdim. Kabinada yosh bola bor ekan. Haydovchi farzandini shoshilinch shifoxonaga olib ketayotganini aytdi. Uning holatini tushundim va ketishiga ruxsat berdim. Oradan bir qancha vaqt o‘tib, o‘sha odam yonimga kelib, xursand holda minnatdorlik bildirdi. Farzandi tuzalibdi. O‘shanda shifokorlar 2–3 daqiqaga kech qolganingizda bola nobud bo‘lardi, deb aytgan ekan».

...Shu payt poyezd ovozi eshitildi. Sharofiddin darhol chorrahaga yetib borib, vaziyatni tartibga solishga

kirishdi. Poyezd o‘tib bo‘lgach, tirbandlikni bartaraf etib, xotirjam o‘z joyiga qaytdi. Ha, undagi xotirjamlikda ko‘p narsani anglash mumkin edi: kasbiga bo‘lgan mehr, faxr va insonlarning mushkulini oson qilishga bo‘lgan intilish.

Nigoraxon TO‘XTAMATOVA,
o‘z muxbirimiz.
Andijon viloyati.

Киберспорт

ТУРНИР ОПРЕДЕЛИЛ СИЛЬНЕЙШИХ

В рамках Месячника молодежи в Ташкенте прошли соревнования по киберспорту «Игры будущего» среди сотрудников органов внутренних дел. Они стали площадкой для проявления интеллектуального и профессионального потенциала молодых специалистов.

Турнир проходил в два этапа. Состязания в виртуальной среде были организованы на базе киберспортивной организации «Cyber Arena», расположенной в Мирзо-Улугбекском районе. На базе центра «Steak ball», расположенного в Яшнабадском районе, участники проявляли навыки стратегического планирования, тактику командного взаимодействия.

В соревнованиях приняли участие 18 команд, каждая из которых состояла из пяти сотрудников.

По итогам упорной борьбы в общекомандном зачете призовые места распределились следующим образом: 1 место заняла команда из Республики Каракалпакстан; 2 место – команда города Ташкента; 3 место – команда Бухарской области.

Церемония награждения победителей состоялась в ГУВД города Ташкента. Дипломы и памятные подарки вручили представители МВД Узбекистана, подчеркнув значимость подобных мероприятий для профессионального роста сотрудников.

Соб. корр.

Самаркандская область

СДЕЛАТЬ ПРАВИЛЬНЫЙ ВЫВОД

«Пробация – возможность, предоставляемая человеку, оступившемуся на жизненном пути, исправить ошибку». Так считает старший инспектор подразделения пробации Кошрабадского РОВД капитан Нуриддин Исматов.

Профессиональную деятельность в органах внутренних дел Н. Исматов начал в 2014 году, сразу после окончания Самаркандского государственного университета. Первый опыт он получил в должности рядового службы охраны Нарпайского района. Через несколько лет целеустремленного сотрудника повысили до заместителя командира отряда службы охраны Иштыханского РОВД. Позже он работал в отделе охраны Пахтачийского РОВД. С 2019 года капитан Н. Исматов служит в подразделении пробации ОВД Кошрабадского района.

Ежедневная работа старшего инспектора включает в себя социальную и психологическую реабилитацию, контроль за соблюдением поднадзорными установленных ограничений и помощь в их возвращении к полноценной жизни.

Сейчас на пробационном учете подразделения находится 315 человек. К каждому из них необходимо найти индивидуальный подход, чтобы предотвратить повторные правонарушения.

– Ключевая задача – коррекция поведения, ресоциализация, социальная адаптация и реабилитация лиц, состоящих на учете, – отмечает капитан Н. Исматов. – Мы не только осуществляем контроль, но и активно помогаем поднадзорным решать жизненные проблемы. Конечно, есть трудности. В нашем отдаленном районе мало крупных предприятий, что делает проблему трудоустройства особенно острой. Однако есть фермерские хозяйства, куда в основном направляются подопечные. Усилия направлены на то, чтобы помочь им встать на путь исправления.

Замира БАЛТАЕВА, соб. корр.

QOLDIRILGAN SABOQ

Oqshomlardan birida o'g'il onasini kechki ovqat tanovul qilish uchun restoranga olib boribdi. Onaizor ancha qarib kuchdan qolgan edi, shu bois ovqatlanayotib, ko'ylagiga taom yoki ichimlikni bexosdan to'kib yuborardi.

Yemakxonaning ba'zi mijozlari ularga norozi bo'lib qarab qo'yishdi. Biroq yigit xotirjamlikni saqlab, ularga e'tibor qaratmadi. Aksincha, onasiga g'amxo'rlik qilib, uning og'zini artib, egniga tushgan ushoqlarni tozalab oldi. Tamaddi nihoyasida u yana onasiga mehr ko'rsatdi, volidasining buzilgan turmagini yig'ib, ko'zoynagini to'g'irlab qo'ydi.

Restorandagilarning bari ularni zimdan kuzatib o'tirishardi. O'g'il hisobni to'ladi va onasining qo'llaridan tutib, tashqariga yo'naldi. Shu onda bir erkak unga xitob qildi:

– Yaxshi yigit, biron narsani unutib qoldirgandek bo'lmayapsizmi, mabodo?

– Yo'q, janob, hech narsamni qoldirmadim, shekilli, – javob qildi o'g'il hayron bo'lib.

Begona erkak e'tiroz bildirdi:

– Adashyapsiz! Siz shu maskanda har bir o'g'il uchun saboq va har bir ona uchun umid hissini qoldirdingiz.

YAXSHI VA YOMON GUMON

Uch do'st kechasi yo'lda ketayotib, yo'l chetida bir kishining o'ra qaziyotganini ko'rib qolishibdi.

Shunda ulardan biri sheriklariga: «Qaranglar, ana u kishi yo'lning chekkasida o'ra qaziyapti. Menimcha, u kimnidir o'ldirgan bo'lsa kerak, tunda ko'mmoqchi shekilli?!», debdi.

Ikkinchisi: «Yo'q, yo'q, u kishi qotil emas! U kishi hech kimga ishonmas ekan, shuning uchun mol-mulkini kechasi odamlardan yashirib berkityapti shekilli», debdi.

Uchinchisi esa ularga qarab: «Unday ham emas, bunday ham emas. Bu kishi solih inson, bu kishi odamlar foydalanishi uchun quduq qaziyapti», debdi.

Ha, har bir inson o'zining holatidan kelib chiqib fikr yuritadi. Yaxshi inson o'zga odamlar haqida yaxshi gumonda bo'ladi. Yomon inson esa o'zgalar haqida yomon gumonda bo'ladi.

KITOB – MURABBIYDIR

Kitoblar sizni minglab asr avval dunyodan o'tgan dohiylar bilan uchrashtiradi.

Rene Dekart

Kitob (bitig) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiydir.

Amir Temur

Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai.

Alisher Navoiy

Kitob yetkazur kishini baxtga,
Omoch sohibini ko'tarar taxtga.

Shayx Nosif

Kitoblar inson tafakkuri javohirlarini yig'ib, avlodlarga meros qoldiradi.

Oybek

KO'ZGU, KALIT VA KITOB

– Uch narsa azaldan odamlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan: kalit, ko'zgu va kitob. Agar yaxshilab o'ylab ko'rsangiz, buning sababini anglab yetasiz.

U lom-mim demay, javobni kuta boshladi. «Ko'zgu, kalit, kitob... Ko'zgu, kalit, kitob...» Bu uch so'zni xayolida qancha takrorlamasin, bir fikrga kela olmasdi.

– Ularning mohiyati, vazifasi bir – ko'rinmaganni ko'rsatish, yashirinni oshkor qilish. Kalit o'z ortida ko'p narsalarni berkitgan eshikni ochadi. Ko'zgu o'zimizga ko'rinmagan qiyofamizni namoyon qiladi. Kitob esa olam sirlari bilan tanishtiradi.

YO'QOTILGAN OR-NOMUS

Qadimda suv, shamol, olov va or-nomus do'st bo'lgan ekan. Biroq bir kuni ular vaqtincha ayrilishga qaror qilishibdi. Bu orada, yana bir-birlarini qanday topish mumkinligi haqida bosh qotira boshlashibdi.

Suv o'zini qamishlar o'sadigan joydan izlash lozimligini aytibdi. Shamol esa uni barglarning shitirlashiga qarab topish kerakligini bildiribdi. Olov o'zini tutun orqali aniqlash mumkinligini qayd etibdi.

Or-nomus esa lom-mim demay, jim turardi. Suv, shamol va olov yana uchrashish uchun uni qayerdan izlash mumkinligini so'rashibdi. Or-nomus esa javob qilibdi: «Meni bir marta yo'qotgandan so'ng, afsuski, hech qachon va hech yerdan topib bo'lmaydi!»

Sahifa materiallarini Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.

В образовательных учреждениях МВД

ВЫПУСК – 2025: К НОВЫМ СВЕРШЕНИЯМ!

В академических лицеях МВД Узбекистана проходят торжества по случаю очередного выпуска учащихся. Данные образовательные учреждения играют ключевую роль в подготовке кадров для правоохранительных органов республики.

Церемонии выпуска – значимое событие. В этот день будущие защитники правопорядка, получившие профессиональные знания, прошедшие школу ответственности и дисциплины, получают путевку во взрослую жизнь. На мероприятиях присутствуют руководители областных УВД, представители общественности, ветераны и гордые за своих сыновей и дочерей родители.

Выпускники – будущее правоохранительной системы Узбекистана. Именно им предстоит стоять на страже закона, обеспечивать безопасность граждан и бороться с преступностью. Пусть каждый из них сможет в полной мере реализовать свой потенциал, воплотить в жизнь самые смелые планы!

Навоийская область

В нынешнем учебном году из 143 выпускников лицея 16 вручены дипломы с отличием, один выпускник удостоен серебряной медали.

Хорезмская область

Лицей окончили 172 юношей и девушек. 36 выпускникам вручены дипломы с отличием. Три выпускника удостоены золотой медали, девять – серебряной.

Самаркандская область

Академический лицей окончили 197 учащихся. 14 выпускников удостоились диплома с отличием. Один учащийся завершил обучение с золотой медалью, а еще один – с серебряной.

Республика Каракалпакстан

Академический лицей окончили 196 учащихся.18 выпускников удостоились диплома с отличием. Одному выпускнику вручена золотая медаль, четверым – серебряные.

XIZMATLARDA

AYYORLIGI ISH BERMADI

Tekinxo‘rlik bilan kun kechirishga odatlangan kimsalar halol mehnat qilish o‘rniga, o‘zgalarning mol-mulkini osongina qo‘lga kiritishga intiladi. Lavhamiz «qahramoni» ham ana shunday yengil-yelpi hayot kechirishga o‘rgangan kimsalardan biri.

Qo‘shko‘pir tumanidagi «Arablar» mahallasida yashovchi Z.X.ning xonadonida o‘g‘irlik sodir etildi. Uyda hech kim yo‘q paytida tilla taqinchoqlar va 7 520 000 so‘m miqdoridagi pul o‘g‘irlab ketildi. Hodisa joyini ko‘zdan kechirgan tergov-tezkor guruhi jinoyatga aloqador bo‘lgan biror bir iz yoki ashyoviy dalil topa olmadi. Gumonlanuvchi shaxslar bilan olib borgan surishtiruvlar ham naf bermadi. Bu jinoyatchining puxta reja asosida, o‘ta ehtiyotkorlik bilan ish tutganini anglatardi...

Oradan ma’lum vaqt o‘tib, tumandagi «Taraqqiyot» mahallasida yashovchi G.Yu.ning uyida ham shu holat takrorlandi. Bu gal ham jinoyat joyidan qo‘lga ilingudek biron narsa topishning iloji bo‘lmadi. Ko‘p o‘tmay, «Baratlar» mahallasida istiqomat qiluvchi Q.X.ning xonadonida ham o‘g‘rilik jinoyati ro‘y berdi. Bu yerdan 31 200 000 so‘m pul hamda tilla buyumlar o‘marib ketilgandi.

Tergov-tezkor guruhi o‘rganishlari natijasida biri biriga o‘xshash ushbu jinoyatlar aynan bir kishi tomonidan sodir etilgan, degan xulosaga kelindi. Xiva shahar IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Hurmatbek Xo‘jayev ishga jalb qilindi. Tajribali ekspert hodisa joyidagi kishi e’tiborini tortmaydigan mayda-chuyda buyumlarni ham ko‘zdan kechira boshladi. Bir necha soatlik sa’y-harakatlar natijasida 7 ta yaroqli qo‘l-barmoq va poyabzal izlari topilib, viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markaziga yuborildi. Ushbu izlardan biri muqaddam bir necha bor sudlangan o‘ta xavfli retsidivist qo‘shko‘pirlik B.O‘tkirga (gumonlanuvchining ismi-sharifi o‘zgartirildi) tegishli bo‘lib chiqdi.

Gumonlanuvchi qilmishini tan olmasdan, turli bahonalarni o‘ylab topib, izquvarlarni chalg‘itmoqchi bo‘ldi. Ammo dastlabki surishtiruvlardanoq uning xatti-harakatlari va ko‘rsatmalarida bir-birini inkor etuvchi holatlar sezilib qoldi. Ayniqsa, qo‘l kafti izining hodisa joyidan topilgani, guvohlarning ko‘rsatmalari hamda inkor etib bo‘lmas boshqa dalillardan so‘ng B.O‘tkir aybini tan olishga majbur bo‘ldi.

– Har bir jinoyatchi hodisa joyida iz qoldirmaslikka harakat qiladi, – deydi mayor Hurmatbek Xo‘jayev. – Ammo ekspert sinchkovlik bilan ishlasa, hodisa joyi va unga yondosh hududlarni diqqat bilan ko‘zdan kechirsa, jinoyatga aloqador iz yoki ashyoviy dalillarni, albatta, topadi. Bu topilmalar jinoyatni fosh qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu tariqa, bir qator o‘g‘rilik jinoyatlarini sodir etgan B.O‘tkirning barcha qilmishlari fosh etildi. Jinoyat ishlari bo‘yicha Qo‘shko‘pir tuman sudi sudlanuvchining qilmishlarini atroflicha o‘rganib chiqib, uni 8 yilga ozodlikdan mahrum qildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o‘z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

«ISSIQ IZIDAN»

NAFSI AMMORA

Navbahor tumani mahallalaridan birida istiqomat qiluvchi Rustam (ismi o‘zgartirildi) tomorqasini sug‘orish va suv bosimini kuchaytirish uchun maxsus qurilma o‘rnatgan edi. Faqat mazkur qurilmani elektr tarmog‘iga hech qanday hisoblagichsiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ulab, ishga tushirdi. Tuman elektr ta’minoti aksiyadorlik jamiyatining ikki nafar xodimi buni bilib qolishdi. Ushbu holat bo‘yicha dalolatnoma rasmiylashtirmaslik va chora ko‘rmaslik evaziga tomorqa egasida 3 million so‘m talab qilishdi.

Fuqaroning murojaatiga ko‘ra, Navoiy viloyati IIB TQX JQB Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish bo‘limi xodimlari tomonidan tezkor tadbir o‘tkazildi. Tadbir davomida aksiyadorlik jamiyati xodimlari qonunbuzar fuqaroning qilmishlarini yashirish evaziga bir yarim million so‘m pullarni olayotgan vaqtida qo‘lga tushdi. Hozirgi mazkur holat bo‘yicha tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda. Nafsiga qul bo‘lgan, qonunbuzarlikni fosh etish o‘rniga o‘zlari qonun talablarini buzayotgan bunday shaxslar, albatta, qilmishiga yarasha jazoga tortiladi.

Mahliyo XOLOVA,
o‘z muxbirimiz.
Navoiy viloyati.

JINOYATGA JAZO MUQARRAR

Tekin boylikni qo‘lga kiritishning o‘ziga yarasha kasofati ham bor. Ishyoqmas, halol ter to‘kmay, mo‘may pul topish ilinjida yurganlarning holi, albatta, voy bo‘ladi. Buni bir og‘iz jiyanining va’dasiga ishongan va oxir-oqibatda boshi toshga tekkan ota-o‘g‘il misolida ham ko‘rish mumkin.

«ZANJIRLI» JINOYAT FOSH ETILDI

Ota – Sohibjon O‘rmonov (voqea ishtirokchilarining ismi-sharifi o‘zgatirildi) tirikchilik uchun hayot qozonida «qaynab», nima ishlarga qo‘l urmadi, deysiz. Bir qarasangiz, qishloq oralab jun, teri, danak va rangli metallar yig‘ib yurardi. Yana kigiz bosishni, teri oshlashni yo‘lga qo‘ydi. Nisholda ham qilib sotdi. Xullas, qilmagan ishi, bormagan joyi qolmadi. Har holda ro‘zg‘orini tebratib kelayotgandi.

O‘g‘il – Umur Sodiqov otaga dastyor bo‘lib, unga ko‘makchilik qilardi. Ayniqsa, oshlangan qo‘zi terisi bilan savdo-sotiq qilib daromad topadi. Ikkisi ham sudlanmagan. Ammo oxirgi ishlari tufayli boshi xam, yuzi esa «dog‘» bo‘ldi.

Gap shundaki, Sohibjon O‘rmonovning jiyani Asilbek vaqtincha Toshkent shahrida yashab, ishlab kelayotgan edi. Nima jin urdi-yu, bir tanishining so‘ziga quloq tutib, nafaqat o‘zi, balki amakisi va o‘g‘lining qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirib, nafs girdobiga mubtalo bo‘ldi.

Ota-o‘g‘il Asilbekning havoyi va’dasiga ishonib, qishlog‘idagi «Paynet» shoxobchasidan jiyani aytgan plastik kartaga 16 million 710 ming so‘m pul o‘tkazadi. Bu pulning evaziga Asilbek sudga oid kimyoviy ekspertiza xulosasiga ko‘ra, sof vazni 428,39 gramga teng bo‘lgan «opiy» giyohvandlik vositasini «Toshkent–Buxoro» yo‘nalishida kirakashlik qilib kelayotgan R.Yunusov orqali yuboradi. Ammo jo‘natma egasiga yetib bormaydi. Chunki G‘ijduvon tumaniga kiraverishdagi «Sarmijon» YPX maskanida ichki ishlar organlari xodimlari R.Yunusov boshqaruvidagi «Gentra»ni to‘xtatib tekshirishganida, haydovchi o‘rindig‘i va avtomashina eshigi orasidan «jo‘natma» chiqdi. Osoyishtalik posbonlari darrov tezkor tadbir ishlab chiqishdi. Tezkor tadbir davomida fuqaro R. Yunusov G‘ijduvon tumandagi «Paxta tozalash zavodi» yoniga borib, U. Sodiqovga «jo‘natma»ni olib kelganini aytadi. U. Sodiqov «jo‘natma»ni olgani vaqtida esa qo‘lga tushdi.

Shu tariqa, «zanjirli» jinoyat fosh etildi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha G‘ijduvon tuman sudi og‘ufurushlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalarini qo‘llab, S. O‘rmonovga 5 yil, uning o‘g‘li U.Sodiqovga 6 yil, jiyani A.Sodiqovga 8 yil va kirakash R.Yunusovga 4 yil ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinladi.

Ha, tekin daromad tufayli jirkanch ishga qo‘l urishning oxiri shu tarzda yakun topdi. Buni boshqalar ham bilib qo‘ysa, yomon bo‘lmasdi.

Safojon MUXTOROV,
katta leytenant.
Buxoro viloyati.

IIV rahbariyati va shaxsiy tarkibi O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, iste’fodagi podpolkovnik

Ismoiljon G‘ULOMOVning

vafoti munosabati bilan marhumning oila a’zolari va yaqinlariga hamdardlik bildiradi.

SULOLA

YUTUQLARI HALI OLDINDA

Har bir o‘g‘il otaga munosib bo‘lishga intiladi, undan o‘rnak oladi. Ota kasbidan faxrlanish hissi bilan o‘sib ulg‘ayadi. Leytenant Bunyod Jumayev ham shundaylardan biri.

Otasi – iste’fodagi mayor Murodullo Bozorov hayotini el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga bag‘ishlagan inson. U Buxoro viloyati IIB YHXBda uzoq yillar turli lavozimlarda faoliyat ko‘rsatdi. Kasbiga sodiq qolib, ko‘pchilikka yordam qo‘lini cho‘zdi. Yaxshilik urug‘ini rahmat yomg‘irlari ila o‘stirdi. Shu bois ham obro‘-e’tibor bilan pensiyaga chiqdi.

– Bunyodjon bolaligidan tirishqoq bo‘lib o‘sdi. U sizday osoyishtalik posboni bo‘laman deb, har safar ishdan qaytganimda aytardi. Buning uchun jismonan chiniqishing kerak, derdim. Maslahatimga amal qilib, maktabdagi sport to‘garaklariga faol qatnasha boshladi, – deydi Murodullo aka o‘g‘lidan faxrlanib.

Bunyod IIV Buxoro akademik litseyini tugatgan yili karantin bo‘lishiga qaramay, o‘qish va sport mashg‘ulotlarini uyida davom ettirdi. Chunki IIV Akademiyasi kursanti bo‘lish istagi kuchli edi. Intilgan va izlanganga tole yor, deydi xalqimiz. Nihoyat maqsadiga erishdi: IIV Akademiyasi kursanti bo‘ldi.

Lavhamiz qahramoni Bunyod Jumayev 2023-yili Vobkent tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori lavozimida xizmat faoliyatini boshladi. Unga profilaktika katta inspektori, kapitan Sh.Shodmonov murabbiylik qildi. Qolaversa, otasidan ham soha sir-asrorlarini o‘rgandi.

Leytenant B.Jumayev tumandagi «Anjirbog‘» mahallasida xizmat olib borarkan, o‘tgan ikki yil davomida mahallada hech qanday jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. Huquqbuzarlik holatlari kamaydi va eng asosiysi, aholi farovonligi oshib, kam ta’minlangan oilalar deyarli qolmadi.

– O‘tgan yili Ichki ishlar xodimlari kuni munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda viloyat IIB boshlig‘i hamda Ichki ishlar vaziri maslahatchisi, general-polkovnik Z.Almatovning ota-onam nomiga minnatdorlik xati berildi, – deydi leytenant Bunyod Jumayev. – Bo‘sh vaqtimni unumli o‘tkazishga harakat qilaman. Ayniqsa, bolalikdagi mashg‘ulotlarimdan biri gitara chalishni kanda qilmayman. Qo‘shiqlar xirgoyi qilib, oilam va hamkasblarimni bahramand etib kelyapman. Shuningdek, ijodiy tadbirlarga juda qiziqaman. O‘tgan yili IIV tizimida o‘tkazilgan «Quvnoqlar va zukkolar» ko‘rik-tanlovida viloyat IIB nomidan jamoa sardori sifatida faol ishtirok etganligim bois, meni IIVning «Patrul» jamoasiga qabul qilishdi. 2024-yili «QVZ» oliy ligasida jamoamiz bilan yarim final bahslarigacha qatnashdik.

Qisqasi, leytenant Bunyod Jumayev otasi bilan faxrlanib, kasbini davom ettirib kelmoqda. Ishonamizki, sharafli kasbga loyiq farzand bo‘lib, hamkasblari fidoyilik bobida undan o‘rnak olishadi. Qolaversa, yutuqlari hali oldinda...

Mirzoqul AHADOV,
o‘z muxbirimiz.
Buxoro viloyati.

KASB FIDOYILARI

SAVOLLAR JAVOBSIZ QOLMAYDI

Manzil koloniyasida mahkumlarning yashash ta’minotidan tortib muassasaning ishlab chiqarish korxonalari, chorvachilik, dehqonchilik xo‘jaliklarining faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish o‘ziga xos bilim, mas’uliyat va fidoyilikni talab etadi. IIV huzuridagi JIED Uchinchi mintaqaviy hududi 40-manzil koloniyasining Moliya va moddiy texnika ta’minoti bo‘limi boshlig‘i, mayor Mamarasul Ergashevga mana shunday zalvorli vazifa yuklangan.

Mamarasul Ergashev ichki ishlar organlarida qariyb 24 yildan beri xizmat qiladi. 2004-yilda Toshkent Avtomobil va yo‘llar oliygohini tugatgach, Uchinchi mintaqaviy hudud 40-manzil koloniyasining Moddiy-ta’minot bo‘limiga buxgalter lavozimida ishni boshlagan.

Yosh xodim dastlabki oylardayoq hujjatlarni tartibga solib, kirim-chiqim ishlarining balansini yuritishdek mas’uliyatli ishni eplagani natijasida koloniyaga tegishli yerlardagi ekinzorlarning hosildorligi ortdi. Daromad ko‘paydi. Chorvachilikka ham baraka kirdi. Shu tariqa, qariyb 15 yil davomida bir joyda mas’uliyat bilan ishladi. Jamoa hurmatiga sazovor bo‘ldi.

Hozirgi paytda koloniya huzurida bir qancha ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko‘rsatadi. Mebelsozlik, poyabzal ishlab chiqarish sexlari kabi yangi korxonalarga asos solingan. Mahkumlarni ish bilan ta’minlash maqsadida tashkil etilgan yangi tadbirkorlik sub’yektlarining «oyoqqa turib ketishi»da ham uning, to‘g‘rirog‘i, Moliya va moddiy texnika ta’minoti bo‘limining alohida hissasi bor.

Bir qator yosh xodimlar Mamarasul Ergashevni o‘ziga ustoz deb biladi. Ko‘rsatmalariga, maslahatlariga og‘ishmay amal qiladi.

– Ustozimizning mas’uliyatliligi, el-yurt oldidagi burchiga sadoqati doim bizga o‘rnak bo‘lib kelgan, – deydi bo‘lim buxgalteri, safdor Ilhomjon Norqulov. – Ayniqsa, uning o‘z bilim va tajribasini biz – yoshlardan darig‘ tutmasdan, savollarimizga erinmay javob berishini yuksak qadrlaymiz.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o‘z muxbirimiz.
Sirdaryo viloyati.

HAYOT ULKAN KURASH MAYDONIDIR

Amerika adabiyoti namoyandasi Ernest Heminguey asarlari butun dunyo xalqlarining qalbini zabt etishga ulgurdi. Xususan, adibning «Chol va dengiz» romani kitobxonlar qo‘lidan tushmay o‘qib kelinmoqda. Ushbu asar 1952-yilda nashr etilgan bo‘lib, yozuvchini Nobel mukofotiga sazovor qildi.

Gulnoza RAHMATULLAYEVA, Namangan shahar IIB JXX HPB profilaktika inspektori, kapitan.

Asarning asosiy mavzusi yashash uchun kurash davomida sabr-toqatli bo‘lish, qiyinchiliklarni mardonavor yengish, mag‘lubiyatlar oldida o‘zni yo‘qotmaslik va tabiat bilan hurmat ila munosabatda bo‘lishdir.

Bosh qahramon – keksa baliqchi Santyago uzoq vaqt omadi yurishmaganiga qaramay, jasorat bilan oldinga intiladi. Uning do‘sti va shogirdi, Manolin kichik bo‘lsa-da, Santyago bilan doim birga, uni tashlab ketmaydi. Marlin esa bosh qahramonning kurashiga sabab bo‘lgan ulkan baliqdir.

Asarni o‘qiganda kitobxonda avvaliga insonning tabiatga qarshi kurashi tasvirlangan degan taassurot paydo bo‘lishi mumkin. Lekin aslida unday emas, bu Santyagoning o‘zi bilan o‘zi olib borgan kurashdir, hayotdagi omadsizliklarga, zaif tanasiga qarshi jangdir. Bu orqali inson ruhi, irodasi va bardoshi sinovdan o‘tadi. «Chol va dengiz» kitobxon qalbida jasoratni, mudrab yotgan tuyg‘ularni uyg‘otadi.

Yozuvchi ko‘p narsani ochiq aytmagan bo‘lsa-da, majoziy timsollar orqali o‘quvchini mushohadaga chorlaydi. Bunda zukko kitobxon asar zamiridagi ulkan ma’nolarni o‘zi anglay olishi kerak. Ya’ni, bu yerda dengiz hayot, tabiat, sinovlar manbayi, u juda ham hayratlanarli, qo‘rquvga soladi, tabiati o‘zgarib turadi. Ulkan baliq Marlin esa orzu va muvaffaqiyat timsoli, uni qo‘lga kiritishga katta mehnat orqali erishish mumkin.

Akulalar yomonlik, orzularga to‘siqdir. Qushlar, yulduzlar, shamol tabiat va inson o‘rtasidagi abadiy bog‘liqlikdir.

Asarda dengizda ulkan baliqni izlab yo‘lga chiqqan qahramon g‘alaba qozona olmaydi, lekin u mag‘lub emas. Chunki u taslim bo‘lmay, oxirigacha kurasha oldi. Bu esa asarning asosiy g‘oyasi – inson ruhi har qanday sharoitda g‘olibligi, garchi jism holdan toyib, yo‘qlikka yuz tutsa-da, orzular so‘nmasligi, hayot davom etishiga ishoradir.

Xulosalar har bir kitobxonda garchi o‘z tuyg‘ularidan kelib chiqib, fikr qilinsa-da, lekin umumiy bir nuqtada birlashadi. Yozuvchi bu bilan insonni yo‘q qilish mumkin, lekin mag‘lub qilib bo‘lmaydi, degan g‘oyani ilgari suradi.

Asarni milliy nuqtayi nazardan tahlil qilinsa, undagi ruh va g‘oyalar milliy dunyoqarashimizga hamohangdir. Masalan, bosh qahramon timsoli millatimizning keksa yoshdagi matonatli bobolarini yodga soladi. U vijdonli, har bir ishni sidqidildan bajaradi, bola bilan munosabatida mehribon boboni ko‘rish mumkin. Manolin esa ustozga hurmat ramzidir. Uning ustozi bilan munosabatini yoshlarning kattalarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, mehr va sadoqat ko‘rsatishi bilan taqqoslash mumkin.

Santyagoning ruhan yengilmagan, balki qadr-qimmat bilan yuzma-yuz bo‘lgan inson sifatida gavdalanishini millatimizga xos bo‘lgan yuksak insoniy fazilatlar bilan muqoyasa qilsak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, asar mutolaasi sizni kuchli mushohada, keng tafakkur sohibiga aylantirishi mumkin.

27-IYUN – MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

XIZMAT VA IJOD UYG‘UNLIGI

Farg‘ona viloyati IIB Axborot xizmati rahbari, kapitan Ismoiljon Sharipov 2018-yildan buyon ichki ishlar organlarida samarali xizmat qilib kelmoqda.

Bolaligidan adabiyot va kitobga mehr bilan ulg‘aygan hamkasbimiz badiiy ijod bilan ham muntazam shug‘ullanib keladi.

Uning kichik hikoyalari, hajviy yo‘nalishdagi she’rlari respublika matbuotida juda ko‘p marotaba e’lon qilingan.

Quyida hamkasbimiz ijodidan namunalarni mushtariylarimizga ham ilindik.

«100 MILLIONLIK KELIN»

«Zamonaviy Matmusa» turkumidan

Xo‘p beg‘ubor xalqmiz-da,
Hajv uchun mavzu qat-qat.
Matmusani qoldirgan
Erkin Vohidga rahmat...

* * *

Kechagi kun majlisga
Kirdim qilib hafsala.
Mavzu: «Kiberjinoyat»
Yo‘q qilish – bosh masala!

«Kirmagan, deb bu holat,
Biror kimsa tushiga»,
Gapni taqadi notiq,
Matmusaning ishiga.

Ma’lum bo‘ldi Matmusa,
Tengqurlardan hayallab.
O‘ttizda uylanibdi,
Mehnat qilib, amallab.

Yetarmidi o‘zbekning
To‘plagani to‘yga deb,
Pul olibdi qo‘shnidan,
O‘tkazvolay, jo‘ra, deb.

Qarz bo‘lish – azal odat
«Menman», degan oladi.
Qarz bir kun uziladi,
Xotin yonga qoladi.

Kelin topdi yangalar,
Ta’rifiga so‘z yo‘qday.
Matmusaga dunyoda
Undan boshqa qiz yo‘qday.

To‘y o‘tdi dang‘ir-dung‘ur,
Dong‘i ketdi qishloqqa.
Lo‘ppi yuzli qiz qurg‘ur,
Lab tegmagan pishloqday!

Qarzni yopdi amallab,
«Och qorin – tinch quloq», deb.
Birda go‘shtsiz osh yedi,
Birda tuzsiz quymoq yeb.

Yonboshlab yotgan edi
Uyining ayvonida,
Shum xabar paydo bo‘ldi,
Xotinning «ayfon»ida.

O‘qidi-yu sovuq ter
Bosib ketdi etini.
«100 million kredit?..»
Esarmasmi xotini?

Suv sepyapti kelinchak,
Bu payt hovli betiga.
Matmusadan bir tepki
Kelib tushdi ketiga.

– Ko‘rmaganman, hoy xotin,
Men sendayin badbaxtni.
Senga uylanganim-chun,
Sendan menga rahmatmi?

Shuncha pulni sen qachon
Olgan eding, hisob ber?!
Endi sho‘rlik xotinni
Bosib ketdi muzday ter.

...Esladi, to‘ydan oldin
Notanish «vizov» kelgan.
Kod so‘ragan allakim,
Bu sodda aytib bergan.

Matmusa saksovulday
Yonib ketdi bir pasda:
Yuz million deganlari
Hazilakam pulmas-da!

Xotinga ham osonmas,
Sho‘rlik shumlik qilmagan.
Kreditning bir so‘min
Hatto ushlab ko‘rmagan...

* * *

Ha, deganda darak yo‘q,
Labini burushtirdi.
Matmusaga xodimlar
Holatni tushuntirdi.

Topilardi hattoki,
Igna bo‘lsa somonda.
Firibgar sarob go‘yo,
Yurar kibermakonda!

Qarzdan chiqib, yana qarz
Kimga aytsin dodini.
Endi pulni to‘laydi,
Kerak bo‘lsa xotini!

Er-u xotin – qo‘sh ho‘kiz
– Mayli, – dedi Matmusa.
– Azasiga ishlatsin,
Firibgar, kazzob... o‘sha...

...Shu majlisda so‘z aytdi
O‘rnidan turib bardam:
Parolingiz asrangiz,
Asrang pulingizni ham.

(Yana bir gap nim hazil,
So‘zimga quloq soling:
Banklardan tekshirtirib,
Qarzi yo‘q xotin oling!)

САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

УЙҚУСИЗЛИК КАСАЛЛИК(МИ?)

Аслида яхши уйқу – соғлом, тетик, хотиржам ҳаётимизнинг муҳим қисмидир. Бироқ баъзан ярим тунда тўсатдан уйқунинг бузилиши ёки тонггача уйқу келмаслиги ҳар бир инсон ҳаётида учраб туради. Аммо бунинг сурункали давом этиши кишини ташвишга солади. Хўш, уйқусизлик ҳам касалликми?

Тунги уйқу марокининг бузилиши, кам ёки юзаки ухлаш, уйқу келмаслиги, бевақт уйғонавериш, шунингдек, жуда эрта уйқу ўчиб кетиши ва бошқа ҳолатлар касаллик белгисидир. Уйқусизлик кўпинча нерв тизимининг кучли руҳий, эмоционал шикастлари, невроз, психоз, бош миянинг органик касалликлари (айниқса, мия қон томирлари атеросклерози), ички аъзолар ва эндокрин безлар (буйрак, жигар, қалқонсимон без) касалликлари билан боғлиқ нерв тизимининг функционал бузилишларида учрайди.

Уйқусизлик ётадиган жойнинг ноқулай бўлиши, бирор нарсадан кучли ҳаяжонланиш, бирорта касалликнинг бошланиш белгиси бўлиши ҳам мумкин. Агар уйқусизлик нохуш кечинмалар, толиқиш, ухлаш марокининг бузилишидан (функционал уйқусизлик) келиб чиққан бўлса, у қайта тикланади. Бунинг учун ҳар куни бир вақтда одатдаги шароитда ётиш, яхши хаёллар суриш лозим.

Баъзан соғлом одамларда ҳам уйқу бузилиши мумкин. Бунда уйқусизликни келтириб чиқарувчи асосий омил – асабийлашиш ҳисобланади. Ухлашдан олдин қанча кўп хавотирли, хотиржамликни бузадиган воқеа-ҳодисалар ҳақида ўйлаган ёки уларнинг бевосита иштирокчисига айланган одам уйқусизлик билан ҳам курашиб чиқишга мажбур бўлади. Чунки асаббузарлик, хавотирланиш одамни сергаклантиради. Бу эса уйқунинг «душмани» ҳисобланади.

Айрим кишилар ухлашдан олдин меъёридан ортиқ овқатланади. Натижада овқат ҳазм

қилиш тизими зўриқади. Бу эса руҳий хотиржамликка путур етказади. Шунингдек, ётоқдаги эътиборни ўзига жалб қилувчи, ёруғлик тарқатувчи буюмлар ҳам бедорликни келтириб чиқаради. Чунки бундай буюмлар инсонни чалғитибгина қолмай, мия фаолиятининг фаоллашишига сабаб бўлади.

Одатий тартибнинг бузилиши ҳам уйқусизликни келтириб чиқариши мумкин. Масалан, ҳафтанинг иш кунлари одамлар танасидаги ҳаётий қувват – энергияни кўпроқ сарфлаб, ҳолдан тояди. Бу эса уларнинг тез ухлаб қолишига сабаб бўлади. Дам олиш кунлари эса дангасалик оқибатида ўзларини уринтирмасликка интилишади. Жисмоний жиҳатдан толиқмаган танада энергия кўп бўлади, натижада уйқу майлининг ҳосил бўлиш вақти кечикади.

Баъзи инсонлар уйқусизликни енгиш учун ухлатувчи дорилардан фойдаланишади. Бу – хато! Дорилардан муттасил фойдаланиш албатта ўзининг ножўя таъсирини келтириб чиқаради. Шу боис, аввало, қуйидаги оддий қоидаларга амал қилинг:

- соат 22:00 дан кеч ётмасликка ҳаракат қилинг;
- тўғри овқатланиш режимига риоя қилинг, кечки овқат ухлашдан камида 3 соат олдин ейилиши керак;
- ухлашдан олдин спиртли ичимликлар, таркибида кофеин моддаси бор ичимликлардан сақланинг;
- ухлайдиган хонани шамоллатинг;
- кечки сайрлар тезроқ ухлашга ёрдам беради;
- ўрнингиз қулай бўлсин;
- ётишдан олдин телевизор, компьютерлардан фойдаланманг;
- доривор гиёҳлардан (мойчечак, ялпиз, тоғжамбул, маврак, арслонқуйруқ кабилар) дамламалар ичиш уйқусизликка яхши ёрдам беради.

Арслонқуйруқ (пустырник). Уйқунинг сифатини оширади, ваҳимани камайтиради, қон босимини туширади, тез уйқуга кетишга ёрдам беради.

Унутманг, уйқу инсон саломатлигига жиддий таъсир кўрсатади. Тиниқиб ухламаслик ва унинг етарли бўлмаслиги турли муаммоларга, хусусан, иштаҳа карнай бўлиши, вазн ортиши, жиззакилик, хотира сусайиши, қарор қабул қилишга қийналиш, диққатнинг ва кўриш қобилиятининг сусайишига олиб келиши мумкин.

Дилноза МЎМИНОВА,
ИИВ Марказий поликлиникаси олий тоифали неврологи.
Адолат ФАЙЗИЕВА,
ўз мухбиримиз.

Симптомы тромбоза

Тромбоз – это образование сгустков крови (тромбов), которые могут блокировать кровоток и представлять угрозу для жизни. Раннее выявление симптомов критически важно для своевременного обращения за медицинской помощью.



Основные признаки тромбоза:

- Боль в конечности – чаще всего в ноге или руке, где образовался тромб.
- Отек – увеличение объема пораженной конечности.
- Покраснение кожи – изменение цвета в зоне воспаления.
- Ограничение подвижности – ощущение скованности, особенно при нагрузке.
- Усиление симптомов при опускании конечности вниз.
- Расширение подкожных вен.
- Изменения кожного покрова – кожа может стать блестящей, холодной или синеватой.

При появлении этих симптомов необходимо немедленно обратиться к врачу. Промедление может представлять угрозу для жизни.

КАК ЗАНИМАТЬСЯ СПОРТОМ БЕЗ ВРЕДА ДЛЯ ЗДОРОВЬЯ



Лето – прекрасное время, чтобы быть активным. Но важно соблюдать баланс между пользой и безопасностью.

Тренируйтесь в утренние или вечерние часы. В это время температура воздуха ниже, а риск перегрева – минимален.

Пейте воду. Потеря жидкости во время занятий спортом усиливается на жаре. Пейте до, во время и после тренировки. Можно добавить немного лимона или щепотку соли, чтобы восстановить электролитный баланс.

Выбирайте легкие виды физической активности. Ходьба, йога, езда на велосипеде, плавание – отличные варианты для жаркой погоды.

Следите за самочувствием. Если чувствуете слабость, головокружение или тошноту – прекратите тренировку, найдите тень, выпейте воду и при необходимости обратитесь за помощью.

Вода – ваш союзник. Плавание не только охлаждает тело, но и укрепляет мышцы и сердечно-сосудистую систему. Аквааэробика – еще один безопасный и эффективный способ поддерживать форму летом.

Аделя ТЕМИРГАЛИЕВА,
заместитель начальника Центральной поликлиники МВД, подполковник.

Внутренний туризм

ГОРОД НА БЕРЕГУ САЙХУНА

В 80 км к юго-западу от Ташкента, на правом берегу Сырдарьи расположены руины Шахрухии – одного из крупнейших городских центров Ташкентского оазиса, существовавшего с I в. н.э. до начала XVIII в.

Крепость у излучины реки

Возведенная на холмах крепость возвышалась над рекой более чем на 25 м. В его юго-западной части поднималась цитадель. В северном углу были установлены ворота.

С трех сторон город окружали предместья-рабады. Территория его пересекалась сетью уличных магистралей. Согласно предположениям, под городом имелась система подземных галерей. Они были столь длинными, что по ним можно было ходить на противоположный берег Сырдарьи. При нападении обороняющиеся прятались под землю, завлекая за собой войска противника. Зная хорошо ходы, жители выходили на поверхность в совершенно неожиданных местах, в то время как их преследователи терялись и погибали в подземельях.

Сегодня, чтобы увидеть старинную крепость, надо напрячь воображение. Издали городище напоминает естественный обрыв над рекой. Сюда приезжают любители старины, увлеченные памятниками эпохи Темуридов.

Новые находки

Недавно археологи обнаружили здесь уникальные находки – остатки укреплений эпохи Амира Темура, фрагменты возможного дворца и арсенала. Также среди находок – шлемы, доспехи, керамика, стеклянные изделия, наконечники стрел и ножи. Они подтверждают, что Шахрухия была военным, металлургическим и стекольным центром региона.

Раскопки на территории городища ведут узбекские и турецкие археологи. По их мнению, из 400 гектаров древнего города до наших дней сохранилась лишь треть. Значительная часть разрушена водами Сайхуна – так в средневековых писаниях называется Сырдарья.

В рамках проекта ученые намерены комплексно изучить историю городища, защитить его от дальнейшего разрушения и включить в Список Всемирного наследия ЮНЕСКО. Проект реализуется в рамках сотрудничества Национального центра археологии Академии наук Узбекистана, Турецкого исторического общества и Турецкого агентства по сотрудничеству и координации (TIKA).

Радик ТУМПАРОВ, соб. корр.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

(23 – 29 июнь)

Қўй. Ҳафта бошида энг муҳим ишларни йўлга қўйиш имконияти мавжуд бўлиб, осонлик билан ҳар қандай ишнинг уддасидан чиқа оласиз. Чоршанба ва пайшанба кунлари яхшигина даромад олишингиз мумкин. Дам олиш кунлари қариндошлар билан тушунмовчиликлар кузатилиши эҳтимоли бор.

Бузоқ. Аввалги иш қобилиятингизни қайтариш учун анчайин тер тўкишингизга тўғри келади. Шуни унутманг-ки, ҳаммаси ўз қўлингизда. Ҳамкасблар билан муносабатда оқил ва доно бўлинг. Ёмонликка ёмонлик билан жавоб қайтармаган маъқул.

Эгизаклар. Бу ҳафта сиз учун жуда самарали ва омадли келади. Оилавий юмушларда кўп нарсага улгура олмасангиз ҳам, иш жойингизда барча вазифаларни муваффақиятли амалга оширасиз. Молиявий масалаларда ҳам қийинчиликка дуч келмайсиз.

Қисқичбақа. Бу кунларда имкон қадар ишсиз ўтирманг, чунки келаётган ҳафта моддий ҳолатни анчайин яхшилаб олиш учун барча имкониятларни тақдим этади. Ҳаётингизга ижобий таъсир кўрсатадиган одамлар билан танишиш эҳтимоли бор. Шанба куни ўта ишонувчанлик сизга панд беради. Якшанба ҳар жабҳада ижобий натижалар кутилмоқда.

Арслон. Ҳафта зерикарли ва бир хилдаги ишлар билан бошланишига қарамай, дастлабки кунлари фаолроқ ҳаракат қилинг. Ҳафтанинг иккинчи ярмида атрофдагилар билан муносабатингиз самимийлашиб, ўзингизни енгил ҳис қиласиз. Дам олиш кунлари режалаштирилмаган харажатлар кузатилиши мумкин.

Паризод. Ҳамма билан яхши муносабат ўрнатишга, ҳар бир ишни хушмуомалалик билан ҳал этишга ҳаракат қилинг. Бу даврда амалга оширилган келишувлар у қадар омадли бўлмайди. Лекин мустақил ўқиб-ўрганиш ёки малака ошириш фақатгина фойда келтиради.

Тарози. Ҳафтанинг илк кунлари ишда ютуқларга эришишни ваъда қилади. Айни шу даврда ҳатто бажарилиши энг қийин бўлган вазифаларни ҳам ҳеч иккиланмай амалга ошириш тавсия этилади. Ҳафтанинг иккинчи ярми йирик харидлар қилиш учун қулайдир.

Чаён. Ҳафта боши оғир ва муаммоли кечади. Бу кунларда бепарволик туфайли хатога йўл қўйишингиз, атрофдагилар билан зиддиятли вазиятлар юзага келиши, иш самарадорлиги пасайиши мумкин. Ҳафтанинг сўнгги кунларини оилангизга бағишлаб, вақтни ҳузур-ҳаловатда ўтказинг.

Ўқотар. Ҳеч бўлмаса душанба ва сешанба кунлари салбий фикр ва муносабат билдиришдан тийилинг. Акс ҳолда келишмовчиликлар узоқ давом этиб, кўнгилсиз оқибатлар олиб келиши мумкин. Лекин ҳафтанинг иккинчи ярми барча ишлар учун омадли бўлишни ваъда қилмоқда.

Тоғ эчкиси. Ҳафта бошида атрофдагилар билан зинҳор баҳслашмасликка ҳаракат қилинг. Бу даврда оилавий масалаларни ҳал этиш учун яхши имконият туғилади. Сешанба ва чоршанбани янги ишларни режалаштириш, ташаббусларни амалга ошириш учун сарфланг.

Қовға. Ҳафтанинг дастлабки уч кунида ўзаро тушунмовчилик ва муросага келмаслик атрофдагилар билан муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Ҳафтанинг иккинчи ярмида кайфиятингиз кўтарилиб, қўл урган барча ишларингиз осон ва енгил ҳал бўла бошлайди.

Балиқ. Айни дамда касбга оид ва молиявий соҳаларда муваффақиятли иш бошлаш учун қулай давр. Бироқ буни амалга ошириш учун ҳар масалада фақат ўзингизга таянинг ва ишонинг. Ҳафта ўртасида ҳамма ишлар силлиқ бароридан кела бошлайди. Дам олиш кунлари режалаштирилмаган харажатлар бўлиши мумкин.

TABIAT VA BIZ

BOLANGIZGA O‘RNAK BO‘LING!

Jajjigina qizaloq dadasi hovlidagi bolta bilan chopib tashlagan katta daraxt shoxlariga, so‘lib qolayotgan yaproqlarga qarab rahmi keldi. Dadasidan nima uchun shunday azim daraxtni chopib tashlaganini so‘radi. Dadasi bu daraxt o‘rniga oshxona qurishni rejalashtirganini, keyin ayasi bu yerda shirin taomlar pishirishini aytdi.

Oradan ancha vaqt o‘tib, oshxona ham bitdi. Shirin taomlarning hidi butun hovlini tutib ketdi. Barcha oila a’zolari dasturxon atrofida jamuljam bo‘lishdi. Ammo qizaloqning tomog‘idan ovqat o‘tmadi...

Qizcha hamon shoxlari singan, barglari iltijoli hilpirayotgan daraxtni yodidan chiqarolmasdi. U bolalariga tabiatni sevishni, o‘simliklarni, har bir gul-u giyohni asrashni o‘rgatgan, ularga ozor berish gunoh sanalishini uqtirgan dadasi nimaga o‘z so‘ziga amal qilmaganini tushunolmasdi...

SHIRINLIKNING OZI SHIRIN

Ismim Madinaxon, 4 yoshdaman. Shirinliklar jon-u dilim. Ammo ko‘p shirinlik yeyish semirtiradi, tishlarni yemiradi, hatto allergiya toshmalari toshishiga sabab bo‘ladi.

Har doim shirinlik yeb bo‘lgach, tishlarni yaxshilab yuvish kerak, shunda tishlar sog‘lom va chiroyli bo‘ladi. Buni menga Dilbar buvijonim o‘rgatganlar, chunki ular shifokor bo‘lib ishlaydilar-da.

«LINDA» MENING DO‘STIM

Mening ismim Muhammadjon. Dadam Shahzod Aminjonov kinolog bo‘lib ishlaydi. Itlar bilan oson «til topishadi». Uyimizda ovcharka itimiz bor, laqabi «Linda». Men uni juda yaxshi ko‘raman, u bilan birga o‘ynayman. «O‘tir», «Tur», «Yonimga kel», desam, aytganimni bajaradi. Koptogimni uzoqqa uloqtirsam, tishida tishlab olib keladi.

O‘rtoqlarimning «Linda»ga juda havasi keladi, uni ko‘rgani chiqishganda pechene, kolbasalar bermoqchi bo‘lishadi. Dadam bunday yeguliklar berishni taqiqlab qo‘ygan. Chunki «do‘stim» kasal bo‘lib qolishi mumkin. Uni doim ehtiyot qilaman.

Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.

YOZ O‘TMOQDA SOZ

«GULISTON»DA MAROQLI HORDIQ

Shu kunlarda Qashqadaryo viloyatining Yakkabog‘, Shahrisabz, Kitob tumanlari va Shahrisabz shahridagi 17 ta so‘lim oromgohda bolajonlar dam olmoqda. Jumladan, Shahrisabz tumanida joylashgan viloyat IIBga qarashli «Guliston» oromgohida ichki ishlar organlari xodimlarining 120 nafar farzandi maroqli hordiq chiqarmoqda.

Bolalar dam olishi uchun barcha shart-sharoitlar muhayyo qilingan. Oromgoh stadionida esa bolalar futbol o‘ynashi, so‘lim bog‘da sayr qilishi uchun tarbiyachilar xizmatda hozir.

– Barcha oromgohlarda bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilgan, – deydi viloyat IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, kapitan Bobur Ergashev. – Xususan, oromgohlarda 15 mingga yaqin kitob fondiga ega kutubxonalar ishlab turibdi. Bundan tashqari, qator sport turlari bo‘yicha musobaqalar uyushtirilyapti, bolalarning axborot texnologiyalari borasidagi savodxonligini oshirish uchun kompyuter to‘garaklari tashkil etilgan.

Oromgohlarda xavfsizlikni, jamoat tartibini, yong‘in va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, turli noxush hodisalarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari va favqulodda vaziyatlar boshqarmasi mas’ullari aloqa va transport vositalari bilan ta’minlangan holda, hamkorlikda xizmat qilmoqda.

Joriy yilda viloyat bo‘yicha oromgohlarda 4 ta mavsumda jami 23030 nafar bola dam olishi rejalashtirilgan. Ayni paytda 1-mavsumda oromgohlarda 5720 nafar o‘g‘il-qiz dam olmoqda.

Sodiq RAHIMOV,
o‘z muxbirimiz.
Qashqadaryo viloyati.

XANDA

G‘AROYIB BOLALAR

– Pastki qavatda yashaydigan bola bilan o‘ynamagin. U juda yomon tarbiya ko‘rgan.
– Men yaxshi tarbiya ko‘rganmanmi?
– Ha.
– Unda u bola men bilan o‘ynasa bo‘larkan.

Besh yoshli boladan ismini so‘rashdi:
– Alisher.
– Qaysi ko‘chada turasizlar?
– Biz ko‘chada emas, hovlida turamiz.

Yugurib ketayotgan ikki poygachini ko‘rgan bola so‘rayapti:
– Ular nega yugurishyapti?
– Kim birinchi kelsa, mukofot oladi.
– Unda nega ikkinchisi yuguryapti?..

MUASSIS:
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir
polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o‘rinbosarlari
podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas’ul muharrir
Sarvar SOBIROV

Veb-dizaynerlar
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar
Gulnoza TURG‘UNBOYEVA
Radik TUMPAROV

TELEFONLAR:
71-231-33-88;
Obuna masalalari bo‘yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami h/r 23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.
Shaxsiy h/v 47001086026287703110117900 1
STIR 200637499.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.

Buyurtma № 1639.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
45794 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206 Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi 1A-uy.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.